2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta


№ 194 (1793), 2026-yil 19-sentabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

QORAQALPOG‘ISTON – YANGI IMKONIYATLAR HUDUDI: STRATEGIK TASHABBUSLAR, JADAL SUR’AT VA YUKSAK SAMARA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 18-sentabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurdi.





Davlatimiz rahbari safarni xayrli amal — atoqli davlat va jamoat arbobi Kallibek Kamalovning xonadoniga tashrif buyurish bilan boshladi. Qur’on tilovat qilinib, marhumning haqqiga duoi fotiha qilindi.

Prezidentimiz marhumning ibratli hayot yo‘li, ezgu ishlari va el-yurt ravnaqi yo‘lidagi xizmatlarini yodga oldi. O‘tganlar xotirasiga ehtirom ko‘rsatish, kattalarni e’zozlash yosh avlod uchun ibrat ekanini ta’kidladi.

Joriy yil fevral oyida vafot etgan Kallibek Kamalov ko‘p yillar Qoraqalpog‘istonda rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sanoat va qishloq xo‘jaligini ravnaq toptirish, aholi turmushini yaxshilashga katta hissa qo‘shdi. Keyingi yillarda nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi sifatida keksalarni qo‘llab-quvvatlash, hamjihatlikni mustahkamlash va yoshlar tarbiyasida faol ishtirok etdi. Xizmatlari “Shuhrat” medali va “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan.

Ana shunday fidoyi, mehnatkash, bag‘rikeng va vatanparvar insonlar yurti — Qoraqalpog‘iston mamlakatimizning tom ma’nodagi o‘sish va rivojlanish timsoliga aylanib bormoqda. O‘tgan yillar davomida Orolbo‘yidagi ekologik muammoga yechim topildi. Bugun ilk qadalgan nihollarni ko‘rib ko‘zingiz quvnaydi. Ildizi yerga mahkam o‘rnashgan yashil olam qoraqalpog‘istonliklar orzusi, ishonchi va quvonchi kabi osmonga bo‘y cho‘zmoqda.

Bu bejiz emas, albatta. Hududga qaratilgan e’tibor, berilgan imtiyozlar sabab tadbirkorlik faoliyati kengaydi. Sohada qo‘shimcha qiymat yaratish tajribasi paydo bo‘ldi. Xorijlik investorlar Qoraqalpog‘istonga sarmoya kirita boshladi. Muhimi odamlar kayfiyati, hayotga qarashi o‘zgardi. Jamiyatda tadbirkorlik ruhi paydo bo‘ldi. Islohotlar samarasini hududning har bir nuqtasi — olis ovullardan tortib, Nukus shahridagi barcha jabhadagi keskin o‘sish jarayonida ko‘rishimiz mumkin.

Kegeyli tumanidagi “ADM Agro” korxonasining sanoatlashgan intensiv bog‘i ham yuqoridagi fikrlar tasdig‘i bo‘la oladi. Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbari korxonada yo‘lga qo‘yilgan zamonaviy agrar tajriba bilan tanishdi.

Umumiy maydoni 330 gektar bo‘lgan bog‘ni ko‘rib ko‘zingiz quvnaydi. Bir paytlar paxta ekilib, aytarlik hosil olinmagan yerda nihollar baravj ildiz otgan. Hududdagi sho‘rlanish sabab bu yerda cho‘lga xos daraxtlarni ko‘rishga o‘rganib qolganmiz. Boshqa turdagi yashillik, ayniqsa, mevali daraxtlar haqida gap ketganida esa, bu yerda o‘smaydi degan qarash bor edi. Shu kabi qarashlar sabab hudud aholisi yillar davomida o‘ziga munosib ish topa olmagani ham rost. Yangi bog‘ bu boradagi masalaga ham yaxshi yechim beradi. Hozirning o‘zida bog‘ sabab mahalliy aholining 100 nafari doimiy ishli bo‘ldi.

Oltmish to‘qqiz gektarga ekilgan 250 ming tup qora olxo‘ri ana shu qarashlarni yo‘qqa chiqardi. Qora olxo‘rining AQSHda seleksiya qilingan ushbu navi sho‘r yerga chidamli ekani bilan ajralib turadi. Ayni paytda hosildorligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, u ekilgach atigi 2 yil o‘tib hosilga kiradi. Mevasi yirik va danagi oson ajralgani uchun qayta ishlashda juda qulay, bozorbop. Muhimi, bir tup daraxt 50-60 kilogrammgacha hosil beradi.

Ishonch eng katta boylik. U jamiyatni harakatga keltiradigan kuchning yuragi. Yurtimizda tadbirkorlikka berilgan e’tibor sabab yirik korxonalar soni yildan yilga ko‘payib, ularning faoliyat turi ham kengayib bormoqda. Jizzax viloyatida avtomobil ishlab chiqarayotgan “ADM Group” kompaniyasi ham faoliyatini kengaytirmoqda. Xususan, Orolbo‘yida intensiv bog‘dorchilikni rivojlantirish loyihasi uchun 55 milliard so‘m yo‘naltirildi.

Bog‘ning hosildorligi faqat qora olxo‘ri mevasiga bog‘lanib qolgani yo‘q, qator oralariga pomidor ekilgan. Bu esa ekin maydonining har bir gektaridan o‘rtacha 40-45 tonna hosil olish imkoniyati demak. Ayni tajriba mahalliy aholi orasida bir parcha yerdan samarali foydalanishni keng targ‘ib etishda ham muhim ahamiyatga ega. Negaki bog‘ni kelib ko‘rgan kishining ko‘nglidan, qilsa bo‘lar ekan-ku degan o‘y o‘tadi. Bog‘dagi zamonaviy tajriba esa kam suv sarfi bilan ham katta daromad topishni o‘rgatadi. Ya’ni bog‘da yopiq drenaj va tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy etilgan. Mana shu tizimning o‘zi suvni 60 foizgacha tejab beradi.

Mineral o‘g‘it bilan boyitilgan suv to‘g‘ridan to‘g‘ri ildizga borgani bois, daraxt foydali elementlarni 90 foizgacha o‘zlashtiradi. Barqaror namlik xirmon cho‘g‘iga baraka qo‘shadi.

Tashrif chog‘ida iqlimning injiqliklariga qaramay, shunday zamonaviy bog‘ yaratilgani tadbirkorlarimizning jasorati va yangicha fikrlayotganidan dalolat ekani qayd etildi. Mevani shu yerning o‘zida quritish va qayta ishlash uskunalari o‘rnatilgani mahsulot qiymatini bir necha barobarga oshirayotgani ta’kidlandi.

Kegeylidagi mazkur muvaffaqiyatli tajriba butun Qoraqalpog‘iston bo‘ylab kengaytiriladi. Intensiv bog‘lar maydonini 10 ming gektarga yetkazib, 40 mingta doimiy va mavsumiy ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan. Marrani bunday katta olishga to‘la asos bor. Avvalo, tajriba o‘zini oqlaydi. Qo‘shimcha qiymat yaratish orqali samaradorlik oshadi. Muhimi, tayyor mahsulotlarga xaridor ham bor. Xususan, Xitoy, Koreya va Rossiya davlatlari bilan manfaatli shartnomalar imzolangan.

Shu yerda davlatimiz rahbari fermerlar bilan muloqot qildi. Ular mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni alohida qayd etib, Qoraqalpog‘iston taraqqiyotiga qaratilayotgan doimiy e’tibor uchun minnatdorlik bildirdi.

Tashrifning navbatdagi manzili “Kegeyli baraka naslli parranda” korxonasi bo‘ldi.

Yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega korxona tuman iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shmoqda. U davlat byudjetiga 4,8 milliard so‘m tushum keltiryapti. Hozir 130 ming tovuq parvarish qilinayotgan korxona 200 ming tovuq boqish imkoniyatiga ega. Majmuada yiliga 27,5 million dona inkubatsion tuxum yetishtiriladi. Ular tovuq va 1 kunlik jo‘ja holida sotuvga chiqariladi. Bu jihatlarning barchasi o‘z o‘rnida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avval Orolbo‘yiga tovuq va tuxum mahsulotlari mamlakatimizning boshqa hududlaridan olib kelinardi. Tadbirkorlikka berilgan e’tibor sabab Qoraqalpog‘istonda yana bir muhim yo‘nalish rivoj topdi. Bugun korxona hudud ehtiyojini qondirib, mahsulotni xorijga ham eksport qilmoqda. Joriy yilning sentabr oyiga qadar Afg‘onistonga 1,1 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Yil yakunigacha bu ko‘rsatkich 1,5 million dollarga yetkaziladi.

Yana bir muhim jihat. Tovuqlarni sifatli ozuqa bilan ta’minlash uchun sutkasiga 100 tonna yem ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod qurilgan.

Prezidentimizning 2024-yil 28-iyundagi parrandachilik sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir qarori asosida tashkil etilgan loyihaning umumiy qiymati 7,8 million dollar. 21 gektardagi korxona ishga tushishi bilan 70 nafar mahalliy aholi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari ushbu korxona faoliyati bilan tanishdi. Kegeylida shunday zamonaviy majmua barpo etilgani yaxshi natija ekani qayd etildi. Bunday loyihalar nafaqat mahsulotlari tannarxi, balki hududning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ekaniga e’tibor qaratildi.

Joriy yil yakuniga qadar yana 8,5 gektarda qiymati 5 million dollarlik yangi fabrikani ishga tushirish reja qilingan. Bu ham yangi ish o‘rinlari va ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz bunday majmualar kelgusida yirik parrandachilik xoldinglariga aylanib, nafaqat yangi, balki yuqori maoshli ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilishi kerakligini qayd etdi, mutasaddilarga bu borada tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Bugun aholi bandligini ta’minlash, ishli aholining daromadini yanada oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz yetakchisi barcha imkoniyatlarni yaratib, tizimli ishlarni tashkil etib bergan. Qoraqalpog‘istonda ham bugun bu borada islohotlar olib borilyapti. Tashrifning galdagi manzilida aynan shu masalaga e’tibor qaratildi.

Prezidentimiz Kegeyli tumanida tashkil etilgan issiqxona majmuasi faoliyati bilan tanishdi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining tashabbusi bilan tashkil etilgan majmuaga 12,5 milliard so‘m imtiyozli mablag‘ ajratilib, 5 gektarda zamonaviy yengil tipdagi issiqxona barpo etildi. Dastlab Ijtimoiy reyestrda turgan 50 ta oila tanlab olinib, ularning har biriga 10 sotixdan issiqxona maydoni ajratib berildi.

Albatta, issiqxonani berishning o‘zi bilan ish yurishib ketmaydi. Shu bois, aniq reja asosida tashkil etilgan kompleksga biriktirilgan lider tadbirkor 2 yil davomida oilalarga ish o‘rgatadi. Ular shu yerning o‘zida o‘qib, bilim va tajribaga ega bo‘ladi. Muhimi, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini lider tadbirkor bozor narxida sotib oladi. Ish o‘rganib bo‘lgan oilalarga tomorqasida issiqxona tashkil etib, tadbirkorlikni boshlashiga ko‘mak beriladi.

Davomi 2-betda

Munosabat




TEXNOLOGIYA, SARMOYA VA INSON KAPITALI UYG‘UNLIGI

Bir necha o‘n yil avval dalada mehnat qilayotgan oddiy fermer uchun sun’iy intellekt, robototexnika yoki mikrochiplar dunyosi uzoq va begona tushunchalar edi. Uning asosiy tashvishi yer, suv, urug‘lik va hosil bilan bog‘liq bo‘lgan. Bugun fermer telefonidagi birgina dastur ob-havoni tahlil qilib, suv sarfini hisoblaydi va ekinni qachon sug‘orish kerakligini tavsiya qiladi. Zavod muhandisi kompyuter orqali butun ishlab chiqarish jarayonini nazorat qila oladi. Talaba dunyoning boshqa burchagidagi universitet kurslarini uyida turib o‘zlashtiradi. Shifokor sun’iy intellekt yordamida tibbiy tasvirlarda inson ko‘zi ilg‘amaydigan belgilarni aniqlashi mumkin.

Davomi 4-betda

YOSHLIK SHAHARCHASI

oliy ta’lim transformatsiyasining amaliy modeli



Oliy ta’limdagi o‘zgarishlarni faqat yangi binolar, zamonaviy laboratoriyalar yoki talabalar soni ortishi bilan baholab bo‘lmaydi. Ya’ni bugun universitet bilim berish bilan cheklanmaydi. Talabani mustaqil fikrlaydigan, tadqiqot qiladigan, yangi g‘oya yaratadigan, uni amaliyotga tatbiq etadigan va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan mutaxassis sifatida shakllantirish uchun yaxlit muhit yaratish zarur.

Shu yil 11-sentabrda Prezidentimizning Olmazor tumaniga tashrifi ana shu yondashuvning amaliy ko‘rinishini namoyon etdi. Binobarin, “Yoshlik” talabalar shaharchasida raqamli boshqaruv va xavfsizlik tizimi, yangi muhandislik universiteti, “Startup Navigator” ofisi, oliy ta’lim tarixi muzeyi, talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda kelgusidagi innovatsion klaster uchun yaratilayotgan muhit bir-biridan alohida loyihalar emas. Ularni yagona maqsad, ya’ni talabaning ta’lim olishi, izlanishi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi va jamiyatga kerakli mutaxassis bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladigan ekotizim sifatida ko‘rish zarur. Bu jihatdan Olmazor tumanidagi tajriba oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi uchun muhim ahamiyatga ega.

Davomi 3-betda

Islohot odimlari



Davlatimiz rahbari ko‘cha bo‘ylab yurar ekan, odamlar bilan samimiy muloqot qildi, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik eng qadrli ne’mat ekanligini ta’kidlab, ezgu tilaklarini bildirdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 19-sentabr, 194-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

QORAQALPOG‘ISTON – YANGI IMKONIYATLAR HUDUDI: STRATEGIK TASHABBUSLAR, JADAL SUR’AT VA YUKSAK SAMARA



Boshlanishi 1-betda

Yana bir muhim jihat. Mazkur issiqxona kompleksida yiliga 1 ming nafar fuqaro issiqxona xo‘jaligi va dehqonchilik sohasi bo‘yicha o‘qiydi. Shu orqali aholi kafolatli va barqaror daromad topish imkoniga ega bo‘ladi. Issiqxona yaqinidagi 350 metrlik zovurda 500 bosh o‘rdak boqishga mo‘ljallangan maxsus joy tashkil etildi. Loyiha doirasida oilalarga 10 boshdan Braziliyadan keltirilgan naslli o‘rdaklar berilgan. Oilalarga o‘rdaklarni ko‘paytirish texnologiyasi o‘rgatiladi, bu esa aholining daromadini yanada oshirishga xizmat qiladi. E’tiborlisi, hududda 100 kilovatt quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatilgan. Ular ishlab chiqarayotgan elektr energiyasi issiqxonaning kundalik ehtiyojini qoplaydi. Bularning barchasi yangi O‘zbekiston tadbirkorlari ijtimoiy mas’uliyatni teran his etib faoliyat yuritayotganidan dalolat.

Tashrif chog‘ida mazkur loyiha qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Bugungi tadbirkorlarning faqat o‘z foydasi uchun emas, balki odamlarning yaxshi yashashiga o‘zini daxldor deb bilayotgani alohida e’tirof etildi.

Yangi O‘zbekiston mahallalari oddiy hududiy boshqaruv tizimi emas. U barcha masalalarni joyida hal etadigan zamonaviy boshqaruv modeli. Keyingi yillarda mahalladagi islohotlar bevosita xalqimiz hayotida aks eta boshladi.

Mamlakatimiz yetakchisi tashrifining navbatdagi manzili — Nukus tumanidagi Diyqan arna mahallasi bo‘lib, aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Mahalla hayoti bilan yaqindan tanishgan kishi yangi O‘zbekiston qiyofasini his etadi. Jumladan, bu yerda “Smart mahalla” tizimi joriy etilgan. Bu aholi murojaatlarini tezkor hal etish, demografik ma’lumotlarni aniq yuritish va infratuzilma holatini elektron nazorat qilish imkonini beradi. Ayni paytda mahallada tadbirkorlikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mingdan ortiq oila, jami 3 ming 600 nafardan ziyod aholi yashaydigan mahallada odamlar uchun munosib turmush sharoitlari yaratilmoqda. Jumladan, ijtimoiy infratuzilma yaxshilangan. 60 o‘rinli zamonaviy bog‘cha foydalanishga topshirildi. Buning uchun esa investitsiya dasturi asosida 4,5 milliard so‘m jalb etilgan. Qolaversa, mahalliy byudjetdan 1 milliard so‘m yo‘naltirilib, futbol va vorkaut maydonchalari barpo etildi.

Mahallada “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida yetti xazinaning biri bo‘lgan asalarichilik asosiy yo‘nalish deya belgilangan. Hududdagi 20 dan ortiq xonadonda asalari boqilmoqda. Bir xonadonda 50-100 ta asalari qutisidan yiliga 1 tonnagacha asal olinib, daromad topilmoqda.

Prezidentimiz mahallada yashaydigan Baxtiyar Jubayev xonadonida bo‘ldi. Bu yerda asalni qayta ishlash sexi va asalari qutilarini tayyorlash jarayoni bilan tanishdi.

Tadbirkor mavsumda 2 tonna qayta ishlangan asal mahsulotini sotadi. Bu yiliga 200 million so‘m atrofida foyda degani. Tadbirkor shu bilan kifoyalanib qolgani yo‘q. U ustaxonasida yiliga 250 tadan ortiq asalari qutisi tayyorlaydi. Shu orqali qo‘shimcha 80 million so‘mgacha daromad topadi.

Hozir yana ko‘plab oilalarni barqaror daromad manbai bilan ta’minlash maqsadida reja tuzilgan. Unga ko‘ra, yil yakunigacha Asalarichilar uyushmasi tomonidan yana 100 ta xonadonda kooperatsiya asosida asalari boqish yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbari shu yerda hudud faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot qildi.

Uchrashuvda Orolbo‘yini rivojlantirish va aholi turmush darajasini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan ekani ta’kidlandi. Mahallalarda boshlangan bunday xayrli ishlar ko‘lami kengaytirilib, ularni amalga oshirish sur’ati yanada jadallashishi qayd etildi.

Keyingi yillarda yurtimizda sog‘liqni saqlash tizimi ham tubdan yangilandi. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston kabi Respublika markazidan olis hududlarga malakali kadrlarni jalb etish, mavjud texnik-bazani takomillashtirishga katta e’tibor berilmoqda. Qoraqalpog‘iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasi ana shu maqsadlarga xizmat qiladigan o‘quv dargohi hisoblanadi.

Tashrif chog‘ida Prezidentimiz ushbu akademiya faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Akademiyaning amaliy mashg‘ulot xonalarini ko‘zdan kechirib, talabalar va soha xodimlari bilan muloqot qildi.

Ta’kidlash kerak, Prezidentimizning 2024-yil 24-dekabrdagi tegishli qaroriga muvofiq, hududdagi tibbiyot muassasalarini xususiy sektor ishtirokida ilm-fan, ta’lim va amaliyotni birlashtirgan yagona innovatsion klasterga aylantirish belgilangan. Yangi tashkil etilgan akademiya soha xodimlarini xalqaro standartlar va ilg‘or texnologiyalar asosida qayta tayyorlashning tayanch markaziga aylanadi. Unda yiliga 3 ming shifokor hamda 6 ming 800 nafar o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimi malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun 4,6 gektarda zamonaviy majmua barpo etilgan. Umumiy qiymati 154 milliard so‘m bo‘lgan loyiha asosida 80 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Olisdan keladigan mutaxassislar uchun 72 o‘rinli zamonaviy mehmonxona faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Yana bir muhim jihat. Bu yerda har yili Orolbo‘yi mintaqasidan 100 nafarga yaqin klinik ordinator tayyorlanadi. Akademiyada ta’lim olish uchun barcha zarur sharoit yaratilgan. Jumladan, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun 18 ta simulyatsion xona tashkil etilgan. Ularda 50 dan ortiq yo‘nalish bo‘yicha raqamli va simulyatsion ta’lim yo‘lga qo‘yilgan. Umuman olganda muassasa zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan jihozlangan. “Edge Medical” jarrohlik roboti shular jumlasidan. Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan ushbu robot real klinik sharoitda masofaviy operatsiyalarni yuqori aniqlikda bajarish imkonini beradi. Shuningdek, uning asosida simulyatsion o‘quv mashg‘ulotlari ham o‘tkaziladi. Bunday jihatlar mutaxassislarni 100 dan ziyod tibbiy amaliyot bo‘yicha xalqaro standartlar asosida tayyorlashga xizmat qiladi.

Nufuzli xorijiy tibbiyot markazlari va yetakchi universitetlar bilan hamkorlik qilish xalqaro standartlarni o‘zlashtirishda samaradorlikni oshiradi. Akademiyada ayni jihatga ham katta e’tibor berilgan. Jumladan, AQSHning Pittsburg hamda Germaniyaning Frayburg universitetlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Shu asosda xalqaro o‘quv kurslari va qo‘shma ilmiy tadqiqotlar tashkil etilib, telemeditsina va raqamli ta’lim texnologiyalari joriy qilingan.

Maqolamiz avvalida aytganimiz kabi mamlakatimizdagi islohotlar sabab xorijlik sarmoyadorlar yurtimizda ish boshlashga katta qiziqish bildirmoqda. Ayni jihat, Qoraqalpog‘istonning iqtisodiy ko‘rsatkichlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, so‘nggi to‘qqiz yilda yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish uchun Orolbo‘yi hududiga 5 milliard dollardan ziyod investitsiya kiritildi. Natijada hududda faoliyat yuritayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni 2018-yilga nisbatan 2,2 barobar oshib, 271 tani tashkil etdi. Ushbu salohiyat joriy yil yakuniga qadar xorijiy investitsiyalar hajmi 2,5 milliard dollarga yetish imkonini bermoqda. Mazkur faktlarning o‘ziyoq yurtimiz barqaror iqtisodiy o‘sishga erishayotganidan dalolat.



Prezidentimizning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi doirasida 7,6 milliard dollarlik loyihalar ishga tushirilib, yangi quvvatlar qurilishiga start berilgani ham fikrimiz dalilidir.

Ayni o‘rinda bir muhim fakt. 2016-yilda Qoraqalpog‘istonning yalpi hududiy mahsuloti 8,5 trillion so‘mni tashkil etgan. Joriy yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 54 trillion so‘mdan oshdi. Ushbu katta sakrash zamirida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, Orolbo‘yi uchun alohida imtiyoz va imkoniyatlar berilishi mujassam. Natijada iqtisodiy tarmoqlar mustaqil o‘sishni boshladi. Buni quyidagi raqamlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, hududda faol tadbirkorlik subyektlari soni 2,5 barobar ko‘payib, 26,5 mingtani tashkil etdi. Natijada mahsulot ishlab chiqarishda xususiy sektorning ulushi 66 foizga yetgan.

Marosim doirasida 592 million dollarlik 11 ta loyiha ishga tushirildi. Shuningdek, xorijiy hamkorlar ishtirokida amalga oshiriladigan 7 milliard dollarlik 47 ta yangi loyiha qurilishiga start berildi. Ularning hisobiga 8 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratiladi.

Xususan, Nukus shahrida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda barpo etilgan Shayx Xalifa nomidagi shifoxona ishga tushirildi. Birgina mana shu loyiha sabab 80 ta ish o‘rni yaratildi. Zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlangan muassasa qiymati 27 million dollar bo‘lib, u 100 o‘ringa mo‘ljallangan. Qoraqalpog‘iston ilmiy-amaliy tibbiyot akademiyasi ham hududda tibbiy xizmat sifatini oshirish va mutaxassislar malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir loyiha Qorao‘zak tumanida start oldi. Unga ko‘ra, tabiatning tortig‘i bo‘lgan shamoldan energiya olinadi. Quvvati 300 megavatt bo‘lgan ikkita shamol elektr stansiyasi va 100 megavattli quvvatni elektr energiyasini saqlash tizimi loyiha samaradorligini oshiradi.

Taxiatosh tumanida “Linkwise” korxonasining 150 million dollarlik modulli intellektual hisoblash markazining birinchi bosqichi ishga tushirildi. U raqamli infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Nukus shahrida jamoat transportini yaxshilashga qaratilgan 20 million dollarlik loyiha ham ish boshladi. Uning doirasida “SAPSAN TRANS NO‘KIS” korxonasi 25 ta avtobus va elektrobus olib kelgan. Yil yakunigacha qo‘shimcha 75 ta elektrobus keltiriladi. Loyihada 200 ta ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Qurilishi boshlanayotgan loyihalarda energetika, raqamli iqtisodiyot, sanoat, transport, tibbiyot va xizmat ko‘rsatish sohalari qamrab olingan. Jumladan, Qo‘ng‘irot tumanida Saudiya Arabistonining “ACWA” kompaniyasi bilan hamkorlikda 1,5 gigavatlik yirik shamol elektr stansiyasini qurish va yagona energetika tizimiga ulash ishlari faol bosqichga o‘tmoqda. Loyiha doirasida 1,5 ming kilometr yuqori kuchlanishli magistral elektr tarmog‘i tortiladi. 500 kilovoltli uchta podstansiya quriladi va yana ikkitasi modernizatsiya qilinadi. Buning uchun 2,6 milliard dollar jalb etiladi.

Chimboy tumanida yana bir yangi loyiha boshlandi. Uning doirasida koreyalik investorlar bilan respublikada ilk bor qizilmiya ildizi qayta ishlanib, yiliga 3 million kub metr biogaz ishlab chiqariladi.

Iqtisodiy tarmoqning qon tomiri bo‘lgan yo‘llarga ham katta e’tibor berilmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda A-380 “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” avtomobil yo‘lining 92 kilometrlik qismida qurilish ishlari boshlandi. Nukus shahri jamoat transporti uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda 112 ta elektrobus xarid qilish va depo tashkil etish loyihasi start oladi.

Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda Qo‘ng‘irot va Taxiatosh tumanlarida raqamli valyuta ishlab chiqarish hamda sun’iy intellekt uchun ma’lumotlar markazlari qurilmoqda. Loyihalarning umumiy qiymati 2 milliard 281 million dollar sifatida baholangan. Bunday markazlardan yana biri Taxtako‘pir tumanida tashkil etiladi. Ekologiya va energetika sohasidagi muhim yangilik sifatida esa Nukus shahrida chiqindilarni termik qayta ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilib, undan elektr energiyasi olish loyihasi boshlandi.

Qorao‘zak tumanidagi “Zengibobo” konida oltin qazib olish bo‘yicha 20 million dollarlik korxona barpo etiladi. Amudaryo tumanida esa 15 million dollarlik zamonaviy yirik savdo markazi tashkil qilinadi.

Yana bir loyihada davlat-xususiy sheriklik asosida tibbiyot fanlari universiteti va yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatish shifoxonasi tashkil etilmoqda. Loyiha hindistonlik hamkorlar bilan bunyod etiladi.

Qoraqalpog‘iston aholisi uchun yana bir quvonchli loyiha turkiyalik hamkorlar ishtirokida tashkil etiladi. Unga ko‘ra, Nukus shahridagi “Do‘stlik” kanali bo‘yida Toshkentdagi “Seul Mun” namunasi asosida 103 million dollarlik dam olish, ko‘ngilochar va savdo markazi barpo etiladi.

Marosimda xorijiy hamkorlar loyihalarni amalga oshirish va ishga tushirish muddatlari haqida axborot berdi. Viloyat hokimlari o‘zlariga biriktirilgan tumanlarda yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘al oilalar daromadini oshirishga qaratilgan loyihalarini taqdim etdi.

Davlatimiz rahbari nuroniylar, olimlar va keng jamoatchilik vakillarini har bir loyiha ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga chaqirdi. Bu oilalar farovonligini ta’minlash, yoshlar kelajagi va Orolbo‘yining mustahkam iqtisodiy poydevorini yaratishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari xorijlik hamkorlar va tadbirkorlarga minnatdorlik bildirdi. Ramziy tugma bosilib, yangi obyektlar ishga tushirildi va qurilish ishlariga start berildi. Investorlar va hudud faollari bilan samimiy muloqot bo‘lib o‘tdi.

Shu yerning o‘zida Nukus shahrida yosh oilalar uchun barpo etiladigan “Yangi O‘zbekiston” turar joy massivining taqdimoti ham o‘tkazildi. Massiv uchun 270 gektar maydon belgilanib, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish boshlangan. Bu yerda 30 ming aholiga mo‘ljallangan ko‘p qavatli uy-joylar, yirik biznes markazlari, savdo, xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar obyektlar quriladi.

Yuqori ishchanlik, qizg‘in kun tartibi va samarador o‘tayotgan tashrifning navbatdagi manzilida Nukus shahridagi “Nukus Insulation Group” korxonasi faoliyati bilan tanishildi.

Qoraqalpog‘iston tabiiy resurslarga boy. Bundan samarali foydalanish qo‘shimcha qiymat yaratib, iqtisodiy o‘sishga zamin hozirlaydi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida amalga oshirilgan loyiha ayni maqsadga xizmat qiladi. Ushbu korxonada mahalliy bazalt xomashyosidan zamonaviy issiqlik izolyatsiyasi materiallari ishlab chiqarilmoqda. Bu esa hududda qurilish materiallari sanoati rivojiga hissa qo‘shmoqda.

Korxona Yevropada ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bu yiliga 300 milliard so‘mlik 50 ming tonna issiqlik izolyatsiyasi materiallari ishlab chiqarish imkonini beradi. Mahalliy xomashyodan xalqaro standartlarga mos mahsulot tayyorlash loyihasi sabab 150 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.

Bazalt asosidagi izolyatsiya materiallari yong‘inga chidamli bo‘ladi. Shuningdek, issiqlikni saqlaydi. Shu orqali bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshiradi. Isitish va sovitish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotlar bilan tanishib, korxona jamoasi bilan samimiy muloqot qildi. Shu yerning o‘zida Qoraqalpog‘iston tumanlariga biriktirilgan viloyatlar hokimlari o‘tgan davrda amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berdi.

Prezidentimiz viloyatlar ko‘magida ushbu tumanlarni qo‘llab-quvvatlash va obodonlashtirish ishlari ko‘lamini yanada kengaytirish zarurligini ta’kidladi. Hududlar o‘rtasidagi aloqalar va ishlab chiqarish kooperatsiyasini mustahkamlash, mavjud imkoniyatlardan birgalikda foydalanib, aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan loyihalarni ko‘paytirish muhimligi qayd etildi.

Navbatdagi manzil Nukus shahridagi “Coals KS” korxonasi bo‘ldi. Prezidentimiz korxona faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda gazoblok va ohak ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Gazoblok ishlab chiqarish uchun “Nukus” erkin iqtisodiy zonasida 4,8 gektar maydon ajratilgan. Ohak ishlab chiqarish quvvatlari esa Qorao‘zak tumanidagi 4,8 gektar maydonda joylashgan. Loyihaning umumiy qiymati 16,3 million dollarni tashkil etadi.

Yiliga 300 ming kub metr gazoblok va 165 ming tonna ohak ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonada ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarini Qozog‘iston va Turkmanistonga eksport qilish rejalashtirilgan. E’tiborlisi, korxona 96 foiz mahalliy xomashyodan foydalanadi. Xususan, kvars qumi, sement va gips mamlakatimizdagi korxonalar tomonidan yetkazib berilmoqda. Ayni jihat mahsulot tannarxini pasaytiradi. Ta’minot barqarorligini ta’minlaydi.

Korxona tomonidan hozirgacha umumiy qiymati 200 million dollar bo‘lgan 5 ta yirik loyiha ishga tushirilgan. Natijada 200 nafar mahalliy aholi ish o‘rniga ega bo‘lgan. Yana 40 million dollarlik 4 ta yangi loyiha bo‘yicha qurilish ishlari davom etmoqda. Ular yana qo‘shimcha ish o‘rni yaratish va hududda qo‘shilgan qiymatni oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulotlar bilan tanishib, korxonaning istiqboldagi rejalari haqidagi axborotni tingladi. Ishchilar bilan samimiy muloqot qildi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish bilan birga sifatini yuqori darajada saqlash, ishlab chiqarish hajmi va eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xodimlar malakasini muntazam oshirib borish muhimligi ta’kidlandi. Korxona rahbariyati va soha mas’ullariga tegishli tavsiya va topshiriqlar berildi.

Ta’kidlanganidek, iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka erishishda aholi bandligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi, ayniqsa, yoshlarning o‘ziga munosib ish topishi uchun ular malakali kadrlar bo‘lishi kerak. Tashrifning navbatdagi manzilida Prezidentimiz Nukus shahridagi 1-son texnikum faoliyati bilan tanishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kasbiy ta’lim tizimi isloh qilindi. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, ichki va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur texnikumda Buyuk Britaniyaning “Pearson BTEC” xalqaro ta’lim dasturi joriy etilgan. Bunda davlatimiz rahbarining joriy yil 17-iyuldagi “Respublikada xalqaro ta’lim standartlari asosida o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’lim dasturlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, ushbu ta’lim dasturi dunyoning 70 ta mamlakatida qo‘llaniladi. U O‘zbekistonda ilk bor mazkur texnikumda yo‘lga qo‘yildi. Dastur nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishni



nazarda tutadi. Texnikumda ushbu ta’lim standartlariga mos zamonaviy o‘quv ustaxonalari va raqamli laboratoriyalar tashkil etildi.

Muassasa 4 gektar maydonda joylashgan bo‘lib, bino va inshootlarining umumiy maydoni 4,6 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu yerda dual ta’limni yo‘lga qo‘yib, hudud iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari uchun mutaxassislar tayyorlash ko‘zda tutilgan. Xalqaro dastur bitiruvchilariga 70 dan ortiq davlatda tan olinadigan diplom beriladi. Loyihaning umumiy qiymati 11,9 milliard so‘m bo‘lib, shundan 2 milliard so‘m hamkorlar tomonidan ajratildi. Natijada 240 o‘rinli zamonaviy ustaxonalar yaratildi. Texnikumda jami 1 ming 203 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda.

Texnikumda xususiy hamkor Salovutdin Ilyosov ishtirokida “spin-off” ta’lim dasturi ham yo‘lga qo‘yilgan. Uning doirasida 136 nafar o‘quvchi talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarni egallamoqda. Asosiy fanlar ingliz tilida o‘qitilib, o‘quv-uslubiy materiallar ham shu tilda taqdim etilmoqda. Bu o‘quvchilarning kasbiy bilimlari bilan birga sohaviy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘z samarasini bera boshladi. Jumladan, joriy yilda texnikumda payvandchilik bo‘yicha o‘qitilgan 25 nafar ishsiz fuqaro Estoniyaga ishga yuborildi. Ular oyiga 3 ming yevrogacha ish haqi olmoqda.

Shuningdek, tashkil etilayotgan 40 million dollarlik sanoat zonasi uchun zarur mutaxassislarni mazkur texnikumda tayyorlash bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Bu ta’limni ishlab chiqarish bilan bog‘lash va bitiruvchilar bandligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari texnikumda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Xalqaro mehnat bozorida malakali kadrlarga talab ortib borayotgani qayd etilib, o‘quv jarayonlarini ish beruvchilar ehtiyojlariga muvofiq tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Yurtimizda aholi madaniy hordiq chiqarishi uchun tunu-kun ishlaydigan ko‘chalarni tashkil etish yaxshi an’anaga aylandi. Ushbu yirik loyiha jamiyatda birdamlik, oilalardagi baxtiyorlik indeksini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi chog‘ida Nukus shahridagi yangilangan ko‘cha bo‘ylab sayr qildi.

Umumiy qiymati 2,2 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida shaharning G‘aresizlik, S.Kamalov va G‘.Sheraziyeva ko‘chalarida obodonlashtirish ishlari bajarildi. Ko‘chalarning 2,5 kilometrlik qismi ta’mirlanib, infratuzilmasi yangilandi. Natijada aholi va shahar mehmonlari uchun qulay dam olish muhiti, savdo va ko‘ngilochar maskanlarning tunu kun faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratildi.

Hudud tunda charog‘on bo‘lishi uchun quyoshdan quvvat oladigan panellar va energiya tejamkor chiroqlar o‘rnatildi. Yomg‘ir suvlari to‘planib qolmasligi uchun 1,5 kilometrlik tarmoq yangidan qurildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi. Shuningdek, hududda 8 ta yangi tadbirkorlik subyekti ish boshladi. Yana 10 tasi faoliyatini kengaytirdi. Natijada 75 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Davlatimiz rahbari ko‘cha bo‘ylab yurar ekan, odamlar bilan samimiy muloqot qildi, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik eng qadrli ne’mat ekanligini ta’kidlab, ezgu tilaklarini bildirdi.

Prezidentimiz tashrifining navbatdagi manzili — Nukus shahridagi “Turon” o‘yingohi bo‘ldi. Bu yerda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishilib, Qoraqalpog‘istonda sportni, xususan, futbolni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalari berildi.

Mazkur o‘yingoh rekonstruksiya ishlaridan so‘ng zamonaviy qiyofa kasb etdi. “Turon”da davr talabiga mos sport infratuzilmasi yaratildi. Shu orqali Qoraqalpog‘istonda futbol va sport infratuzilmasini tubdan yangilab, xalqaro darajadagi chempionlarni kamol toptirish maqsad qilingan. Bu boradagi ishlarda Prezidentimizning 2023-yil 7-apreldagi “Professional futbolni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umumiy qiymati 118,6 milliard so‘m bo‘lgan loyiha sabab 85 kishining doimiy bandligi ta’minlandi. Rekonstruksiyaga qadar stadion 9,3 ming tomoshabinga mo‘ljallangan edi. Endi u 12 ming futbol muxlisini o‘z bag‘riga sig‘dira oladi.

Stadion “Aral” professional futbol klubi bazasi hisoblanib, bu yerda Respublika futbol akademiyasining 190 nafar tarbiyalanuvchilari doimiy mashg‘ulot va o‘quv-yig‘inlarini o‘tkazmoqda. Shuningdek, bu yerda 2 ta sport zali, 2 ta qo‘shimcha stadion ham mavjud. Stadionga ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy platformalar, ofsayd kameralari uchun maxsus nuqtalar o‘rnatilgan. Markazlashgan VAR tizimi uchun alohida zona tashkil etildi.

Stadion majmuasi tarkibida akademiya tarbiyalanuvchilari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xususan, 196 o‘rinli yotoqxona, 84 o‘rinli oshxona, trenajyor zallari, taktik tahlil xonalari ular ixtiyorida.

Majmua ko‘p tarmoqli sport markazi sifatida ham faoliyat yurita oladi. Ya’ni bu yerda yengil atletika, boks va taekvondo yo‘nalishlarida 100-150 nafargacha sportchilar doimiy shug‘ullanishi mumkin. Umuman, loyiha sabab sport infratuzilmasida yoshlar seleksiyasi, professional jamoalar tayyorgarligi va musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazish imkoniyatlari kengaydi.

Mamlakatimiz yetakchisining Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davom etmoqda.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
Dilshod ULUG‘MURODOV,
Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Zamonaviy boshqaruv, avvalo, talabaning muammosini oldindan ko‘ra bilishdan boshlanadi. Bugun “Yoshlik” talabalar shaharchasida joriy etilgan “Vaziyatlar markazi” aynan shu vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. Markaz Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek va Sergeli tumanlarida joriy etilgan raqamli boshqaruv tajribasi asosida shakllantirildi.

NIGOH 3

2026-yil 19-sentabr, 194-son

YOSHLIK SHAHARCHASI

oliy ta’lim transformatsiyasining amaliy modeli



Qo‘ng‘irotboy SHARIPOV,
oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Islohot odimlari



Boshlanishi 1-betda

Talabaga munosabat o‘zgarmoqda

Bir paytlar oliy ta’lim deganda, avvalo, auditoriya, dars va diplomni tasavvur qilardik. Talabaning universitetda qanday yashashi, o‘zini qanchalik xavfsiz his qilishi, iqtidori qanday rivojlanishi, muammosi qachon va qanday aniqlanishi, bitirgandan keyin qayerda ishlashi kabi masalalarga bir-biridan uzoq jarayonlar sifatida qaralardi. Bugun talabaga munosabatning o‘zi o‘zgarmoqda. Endi biz uchun talaba faqat ta’lim oluvchi emas, uning ta’limi, xavfsizligi, tashabbusi, ilmiy izlanishi, bandligi va kelajakdagi o‘rni bir butun tizimning e’tibor markazida turishi kerak.

Zamonaviy boshqaruv, avvalo, talabaning muammosini oldindan ko‘ra bilishdan boshlanadi. Bugun “Yoshlik” talabalar shaharchasida joriy etilgan “Vaziyatlar markazi” aynan shu vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. Markaz Toshkent shahrining Mirzo Ulug‘bek va Sergeli tumanlarida joriy etilgan raqamli boshqaruv tajribasi asosida shakllantirildi. Bu yerda 4 ta oliy ta’lim muassasasi, 41 ta talabalar turar joyi, 110 dan ortiq kuzatuv kamerasi, SOS tugmalari, patrul xizmat avtomobillari va boshqa obyektlar yagona interaktiv raqamli xaritaga integratsiya qilingan. Natijada shaharchadagi vaziyatni onlayn kuzatish, tezkor ma’lumot olish va zarur choralarni o‘z vaqtida ko‘rish imkoniyati yaratildi.

Ilgari talaba haqidagi ma’lumotlar turli tizimlarda tarqoq holda edi. Endi esa 68 mingdan ortiq talaba bo‘yicha ma’lumotlar yagona reyestrga birlashtirilib, har biri uchun elektron karta shakllantirilmoqda. Davomat, yotoqxona, ijtimoiy holat, murojaatlar va boshqa ma’lumotlarni bir muhitda ko‘rish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, “Xavf” moduli ishga tushirilishi muhim. U orqali talabaning ijtimoiy holatidagi xavflar oldindan aniqlanib, alohida e’tibor va nazorat talab qiladigan guruhlar shakllantiriladi. Buning uchun ta’lim, ichki ishlar, adliya, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan ma’lumotlardan foydalanilmoqda.

“Vaziyatlar markazi” faqat xavfsizlik bilan cheklanmaydi. “Bitiruvchilar bandligi” moduli orqali bitiruvchining ish bilan ta’minlanganlik holatini onlayn kuzatish, ishga joylashtirish bo‘yicha manzilli choralar ko‘rish imkoniyati yaratilgan. “TTJ” moduli esa talabalar turar joylaridagi o‘rinlar, bo‘sh va band joylar haqidagi ma’lumotlarni bir joyda ko‘rish imkonini beradi.

Talabaning o‘zi ham bu tizimning faol ishtirokchisiga aylanadi. “Xavfsiz ta’lim” mobil ilovasi va Call markaz orqali o‘qish jarayoni, kontrakt to‘lovi, dars jadvali, yotoqxona, infratuzilma yoki boshqa muammolar bo‘yicha murojaat qilish mumkin. Mobil ilovaga SOS tugmasi qo‘shilishi esa har bir talabaning telefonini qo‘shimcha xavfsizlik vositasiga aylantiradi. Bu yerda yana bir muhim jihat bor: raqamli tizim nafaqat talabaning xavfsizligini ta’minlash, balki ota-onaning ham farzandi ta’limi va kundalik holatidan xabardor bo‘lib turishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. “Xavfsiz ta’lim” mobil ilovasining ota-onalar uchun mo‘ljallangan imkoniyatlari orqali farzandining ta’lim jarayoni, zarur holatlarda uning xavfsizligi va universitet bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ma’lumot olish imkoniyati ko‘zda tutilgan.

Shaharchada bir kunda 80 mingdan ortiq talaba harakatlanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, “Vaziyatlar markazi” — katta ijtimoiy muhitni inson manfaati va xavfsizligi maqsadida boshqaruvning yangi tajribasi, talabani yaxshiroq tushunish, muammoni oldinroq ko‘rish, xavfni oldindan aniqlash va qarorni tezroq qabul qilishga xizmat etadigan boshqaruv modeli.

Qamrovdan sifatga, sifatdan samaraga

Bugungi o‘zgarishlarni to‘g‘ri baholash uchun, avvalo, oliy ta’lim tizimida islohotlar boshlangan davrdagi holatni eslash kerak. Oliy ta’lim tizimida uzoq yillar davomida shakllangan yondashuvlar zamon talablariga javob berishda qiyinchilik tug‘dirardi. Qamrov past, ta’lim imkoniyatlari cheklangan, universitetlar mustaqilligi deyarli yo‘q, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik esa bugun biz ko‘zlayotgan darajada emas edi.

Shu sababli islohotlar oldida turgan vazifa oddiy emasdi. Gap mavjud tizimni bir oz yaxshilash emas, balki yillar davomida to‘plangan muammolarni hal qilish, oliy ta’limni kengaytirish va uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish haqida edi. Bugun biz erishayotgan natijalarning ahamiyatini ham aynan shu nuqtayi nazardan baholash kerak.

Bu vazifalar qanday ko‘lamda bajarilganini raqamlar ko‘rsatib turibdi. Oliy ta’lim sohasiga qaratilgan ulkan e’tibor, yoshlar kelajagi, taqdiriga g‘amxo‘rlik va izchil sa’y-harakatlar natijasida 2017-2026-yillarda talabalar soni 279 mingdan 1,6 millionga yetdi. Oliy ta’lim tashkilotlari soni 77 tadan 205 taga, yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovi 9 foizdan 44 foizga, ilmiy salohiyat esa 32 foizdan 52 foizga oshdi. Bu natijalar tizimning ko‘lami o‘zgarganini ko‘rsatadi. Endi oldimizdagi asosiy masala ushbu katta salohiyatni sifat va natijaga aylantirishdan iborat.

2026-yilda qabul qilingan yangi yondashuvlar shu maqsadga qaratilgan. Oliy ta’limda ta’lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirishni bir-biri bilan bog‘laydigan “5T” modeli shakllantirilmoqda. Bu modelda universitetga bilim, tadqiqot, innovatsiya va iqtisodiy qiymat yaratadigan markaz sifatida qaraladi.

Shuning uchun ta’lim sifati endi faqat auditoriyadagi darslar yoki imtihon natijalari emas, balki talabaning qanday bilim va ko‘nikma bilan bitirayotgani, qanchalik mustaqil fikrlay olishi, ilmiy izlanishga tayyorligi, innovatsion g‘oyasini amaliyotga olib chiqa olishi va mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi bilan baholanishi kerak.

“ToshTech”: muhandislik ta’limida yangi yondashuv

Bu yondashuvning eng muhim misollaridan biri “ToshTech” texnika universitetidir. Universitet Prezidentimizning 2025-yil 8-sentabrdagi qarori asosida tashkil etildi. Loyiha qiymati 69,5 milliard so‘m bo‘lib, Toshkent davlat texnika universitetining 7 qavatli o‘quv binosi to‘liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy laboratoriya va o‘quv jihozlari bilan ta’minlandi. Universitet akademik, moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustaqil davlat oliy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yuritmoqda. 2030-yilgacha Toshkent davlat texnika universitetining tegishli fakultet va kafedralarini bosqichma-bosqich yangi innovatsion ekotizimga transformatsiya qilish ko‘zda tutilgan.

“ToshTech”da ta’lim to‘liq ingliz tilida tashkil etilgan. Shanxay Szyao Tong universiteti, Milan politexnika universiteti, Germaniyaning “Constructor” universiteti va “Boston Consulting Group” bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.



Milan politexnika universiteti bilan uchta ta’lim dasturi bo‘yicha ishlanmoqda, Shanxay Szyao Tong universiteti bilan 2+2 va 3+1 dasturlari rejalashtirilgan, ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha “ASIIN” bilan kelishuv bor.

Yana bir muhim jihat, talaba birinchi kursdanoq real sanoat muammolari bilan ishlaydi. “ACWA”, “UzAuto Motors”, “Issiqlik elektr stansiyalari”, “Hududiy elektr tarmoqlari” kabi korxonalar bilan hamkorlikning mazmuni ham shundan iborat. Bu aslida oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi masofani qisqartirishdir.

2026/2027-o‘quv yili uchun universitetga 1654 abituriyent hujjat topshirgani va ular orasidan eng bilimli va iqtidorli 400 yosh saralab olingani mazkur modelga qiziqish yuqori ekanidan darak. Ilk talabalarning barchasi davlat granti asosida ta’lim olmoqda. Bu yoshlar uchun berilgan imkoniyat bilan birga katta mas’uliyat hamdir. Davlat ta’lim olish uchun sharoit yaratsa, talaba bu imkoniyatni bilim, tadqiqot, mehnat va natija bilan oqlashi kerak.

Tarixni bilgan avlod kelajakni yaxshiroq quradi

“Yoshlik” talabalar shaharchasida Oliy ta’lim tarixi muzeyi ochilishi shu nuqtayi nazardan muhim. Muzeyda O‘zbekistondagi ta’lim an’analarining ildizlari, Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlari, jadid ma’rifatparvarlari, XX asrda universitetlarning shakllanishi, mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlar va yangi O‘zbekistondagi oliy ta’lim transformatsiyasi o‘zaro bog‘liq holda ko‘rsatiladi.

Ekspozitsiyada Turkiston xalq dorulfununidan tortib, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Toshkent davlat universiteti va O‘zbekiston Milliy universitetigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlar arxiv hujjatlari, fotomateriallar, infografika va multimedia vositalari orqali yoritiladi. Ayniqsa, muzeyda oliy ta’limning so‘nggi o‘n yillikdagi o‘zgarishlari ko‘rsatilishi talabalarimiz uchun muhim bir xulosani anglatadi: bugungi imkoniyatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Ular uzoq tarixiy taraqqiyot, ilmiy maktablar, ma’rifatparvarlar merosi va keyingi islohotlarning mantiqiy davomidir.

Shu ma’noda, tarix muzeyi ham tarbiyaning bir shakli, xotira orqali kelajakni tarbiyalash maktabidir. Biz talabaga faqat qaysi kasbni egallashni emas, o‘zi tanlagan kasb va ilm zamini qanday shakllanganini ham anglatishimiz kerak. Chunki bugungi universitet bir kunda paydo bo‘lgani yo‘q. Uning ortida asrlar davomida shakllangan ilmiy tafakkur, “ustoz-shogird” an’anasi, ma’rifatga intilish va bilimni qadrlash madaniyati bor. Ana shu uzviylikni his qilgan yosh bugungi imkoniyatini ham, ertangi mas’uliyatini ham chuqurroq anglaydi.

G‘oyadan natijagacha bo‘lgan yo‘l

Zamonaviy universitetning yana bir muhim vazifasi talabaning ilmiy va innovatsion g‘oyasini ko‘rish, uni qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga olib chiqish uchun zarur muhitni yuzaga keltirishdir. Bugun mamlakatimizda 47 mingdan ortiq startap hamda innovatsion ishlanma amalga oshirilmoqda. Bu raqam yoshlarning yangilik yaratish salohiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Endi muhim vazifa ana shu salohiyatni to‘g‘ri yo‘naltirish va har bir istiqbolli g‘oyaning o‘z manziliga yetib borishi uchun imkoniyat yaratishdir. Shu maqsadda shaharchada “Startup Navigator” ofisi tashkil etilmoqda. U yoshlarning g‘oyalarini saralash, ularni mavjud davlat tanlovlari, akseleratorlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga yo‘naltirishda ko‘mak beradi. Ya’ni talaba o‘z g‘oyasi bilan qayerga borishni izlab vaqt yo‘qotmaydi, uning tashabbusi keyingi bosqichga olib chiqiladigan aniq yo‘nalishga ega bo‘ladi.

Aslida, innovatsion muhitning qiymati faqat unda qancha g‘oya paydo bo‘layotgani emas, shu g‘oyalarning qanchasi loyihaga, loyihalarning qanchasi real mahsulot, texnologiya yoki xizmatga aylanayotgani bilan belgilanadi. Shuning uchun universitetda yaratilgan tashabbus qog‘ozdagi taklif yoki tanlov uchun tayyorlangan loyiha bo‘lib qolmasligi kerak. Uning ortida ilmiy izlanish, tajriba, sinov, hamkorlik va bozorga chiqish imkoniyati turgan yaxlit jarayon bo‘lishi zarur. Bu yondashuv oliy ta’limda shakllanayotgan yangi falsafaning muhim qismi. Universitet endi faqat bilim berib, ilmiy maqola tayyorlaydigan maskan emas. U yangi bilimni g‘oyaga, g‘oyani innovasiyaga, innovatsiyani esa iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga aylantiradigan muhit bo‘lishi kerak. Shunda talaba yangi g‘oya va yangi qiymat yaratuvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi.

Innovatsion klaster tashkil etiladi

“Yoshlik” talabalar shaharchasining 42 gektar hududida AT park, yuqori texnologiyali sanoat va ta’lim obyektlarini birlashtirgan innovatsion klaster tashkil etilishi rejalashtirilgan. Menimcha, bu yerda muhim jihat faqat yangi obyektlarning barpo etilishida emas. Asosiy masala ularning bir-biri bilan qanday ishlashida. Chunki zamonaviy oliy ta’lim uchun alohida auditoriya, laboratoriya yoki texnoparkning o‘zi yetarli emas. Ular o‘rtasida uzluksiz harakat bo‘lishi kerak. Talaba auditoriyada olgan bilimini laboratoriyada sinab ko‘radi, laboratoriyada paydo bo‘lgan savol uni tadqiqotga yetaklaydi, tadqiqot natijasi yangi g‘oyaga, g‘oya startapga, startap esa korxona uchun zarur mahsulot yoki texnologiyaga aylanadi.

Shu ma’noda, innovatsion klasterni faqat bir necha obyekt joylashgan hudud emas, bilim va g‘oyalar harakatlanadigan muhit sifatida tushunish zarur. Bu yerda universitet, ilmiy markaz, texnologik kompaniya, ishlab chiqarish korxonasi va talaba bir-biridan uzilgan holda emas, yagona jarayon ishtirokchisi sifatida harakat qiladi. Bu yondashuv “ToshTech”da yo‘lga qo‘yilayotgan muhandislik ta’limi, “Startup Navigator” orqali yoshlarning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy laboratoriyalar va sanoat korxonalari bilan hamkorlik kabi tashabbuslarni ham yagona mantiqqa birlashtiradi. Ya’ni talaba uchun ta’lim, tadqiqot, innovatsiya va amaliyot alohida bosqichlar emas, bir-birini davom ettiradigan jarayonga aylanadi. Aslida, universitetning hududi qanchalik katta ekani emas, shu hududda qancha bilim yaratilayotgani, qancha g‘oya sinovdan o‘tayotgani va ularning qanchasi real qiymatga aylanayotgani muhim. Shu nuqtayi nazardan, “Yoshlik” talabalar shaharchasida shakllanayotgan muhit oliy ta’lim, ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyot o‘rtasidagi yangi bog‘liqlikning amaliy ko‘rinishi bo‘la oladi. Ana shunda talabalar shaharchasi oddiy o‘quv va yashash hududidan yoshlar bilim oladigan, bilim yaratadigan, sinaydigan va uni hayotga tatbiq etadigan ekotizimga aylanadi.

Olmazor tajribasi nimani ko‘rsatmoqda?

11-sentabr kuni Olmazorda ko‘rilgan ishlarga alohida loyihalar yig‘indisi emas, balki oliy ta’limning yangi modeli qanday shakllanayotganini ko‘rsatadigan yagona tizim sifatida qarash muhim. Raqamli boshqaruv talabaning xavfsizligi va kundalik muhitini yaxshilashga xizmat qilsa, “ToshTech” ta’limni sanoat va mehnat bozori bilan yaqinlashtiradi. “Startup Navigator” g‘oyani amaliy natijaga olib chiqish uchun imkoniyat yaratadi, muzey esa ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlaydi. Innovatsion klaster bu jarayonlarni yanada keng muhitda birlashtirishi ko‘zda tutilmoqda.

Buning zamirida bitta muhim o‘zgarish bor: biz oliy ta’limda miqdoriy o‘sish bosqichidan sifat va natija bosqichiga o‘tyapmiz. Endi universitet faoliyatini shu muhitda qanday mutaxassis shakllanayotgani bilan baholashimiz kerak. Buning uchun universitetning akademik va boshqaruv mustaqilligi, ta’lim dasturlari xalqaro talablarga mosligi, ilmiy salohiyat, raqamlashtirish va sun’iy intellektdan samarali foydalanish, sanoat bilan hamkorlik, bitiruvchilarning bandligi kabi yo‘nalishlar bir-biridan ajratilmasligi zarur. Ta’lim sifati aynan shu omillarning bir nuqtada tutashishi orqali namoyon bo‘ladi.

Xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar shu jarayonning muhim vositalaridan. Ammo ularni maqsadning o‘ziga aylantirmasligimiz kerak. Reyting universitetning qaysi darajada turganini ko‘rsatadi, akkreditatsiya esa ta’lim jarayonining belgilangan standartlarga mosligini baholaydi. Biz uchun eng muhim mezon esa talaba universitetga kirgan kuni bilan uni bitirayotgan kuni o‘rtasida qanday o‘zgarish yuz berganidir.

Agar u mustaqil fikrlaydigan, kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega, tadqiqot qiladigan, yangi g‘oya taklifini amaliyotga tatbiq eta oladigan mutaxassis bo‘lib shakllansa, demak, universitet o‘z vazifasini bajargan bo‘ladi. Shu ma’noda, “Yoshlik” talabalar shaharchasida boshlanayotgan ishlar oliy ta’limni yangi mazmun, yangi muhit va yangi natija mezonlari asosida tashkil etish yo‘lidagi amaliy qadamdir.

ORZULAR RO‘YOBI: YANGIOBOD ENDI CHINDAN HAM OBOD GO‘SHA

G‘uzor tumanidagi Yangiobod mahallasiga kirib kelar ekansiz, hududda kechayotgan o‘zgarishlardan ko‘nglingiz yorishadi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 28-martdagi “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mahalla hayotida yangi davrni boshlab bermoqda. Qariyb 7 ming aholi yashaydigan mahallada bunyodkorlik avj olgan.





Qaror va ijro

Joriy yil Yangiobod ahli uchun eng katta yangiliklardan biri ichimlik suv masalasi hal etilayotganidir. Mahallada yangi ichimlik suv tarmoqlari tortish uchun 5 milliard so‘mlik loyiha amalga oshirilyapti. Bu oddiy infratuzilma loyihasi emas. U uzoq yillar kutilgan orzuning ro‘yobi, mahalla ahlining umidi va ishonchi!

— Men shu mahallada 50 yildan beri yashayman. Yarim asr mahallamizga ichimlik suv kelishini kutdik. Uyimizdagi maxsus quduqni uzoqdan suv keltirib to‘ldirish kundalik hayotimizning bir qismi edi, — deydi mahalla faxriysi Rustam ota Rahmonov. — Endi ichimlik suv tarmog‘i tortilayotganini ko‘rib, ko‘zlarimga ishonmayapman. Gohida boshqa joylarda eshigi oldiga quvurdan suv kelib turganini ko‘rib, havas qilardik. Qachondir bizda ham shunday bo‘larmikan, derdik. Mana, uzoq yillar orziqib kutgan orzularimizga yetishyapmiz.

Yangiobodda elektr tarmoqlarini yangilash va ta’minot sifatini yaxshilashga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

— Mazkur yo‘nalishda 5,8 milliard so‘mlik ish bajarish ko‘zda tutilgan, — deydi Yangiobod mahallasi raisi Ulug‘bek Yo‘ldoshov. — Xususan, yangi transformatorlar o‘rnatilib, 890 ta simyog‘och yangilanadi va 35,5 kilometr elektr uzatish tarmog‘i tortiladi. Bu ishlar mahalladagi mavjud elektr infratuzilmasini zamonaviy talablarga moslashtiradi.

Yoshlarning ta’lim olishi, tadbirkorlik faoliyati, umuman, barcha yumush uchun barqaror elektr ta’minoti kerak. U yo‘llarimiz kabi ko‘ngillarni ham yorishtiradi. Yorug‘ yo‘llar ravon ham bo‘lsa, manzilga yanada oson yetib borish mumkin.

Yangiobodda ichki yo‘llarga shu paytga qadar biror marta e’tibor qaratilmagan. Kuz-qishda loy, yozda tuproq edi. Aholi bir necha bor hashar qilib, qum-shag‘al to‘kib, masalaga yechim topgandek bo‘lgan. Lekin bir oz vaqt o‘tishi bilan yana eski holiga kelib qolavergan.

— Mahallamizda to‘rtta qishloq bor, — deydi nuroniylardan biri Hasan Rajabov. — Hududdagi birorta ko‘cha shu paytgacha asfaltlanmagan. Shu yilning o‘zida deyarli barcha ichki yo‘llar ta’mirlanishini eshitib, barchamiz xursand bo‘ldik. Yo‘l soz bo‘lsa, mashaqqatimiz ozayadi. Tashvishlarimiz ortga chekinadi. Ko‘z tegmasin. Mahallamizda ish qizg‘in. Biz ham qarab turganimiz yo‘q. Har kuni yoshlarni yetaklab, hasharga chiqamiz. Qo‘limizdan kelgancha quruvchilarga yordam beryapmiz. Nasib bo‘lsa, yil yakunida yana kelsangiz, qishloqlarimizni tanimay qolasiz.

Dasturda mahalladagi 14 kilometr ichki yo‘lni asfaltlash reja qilingan. Mazkur ishlar uchun 9,8 milliard so‘m ajratilgan. Shuningdek, mahalla hududida 1 kilometr uzunlikdagi zamonaviy piyodalar yo‘lakchasi barpo etiladi. Qiymati 350 million so‘m bo‘lgan bu loyiha, ayniqsa, piyodalar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mahalla obodligi faqat yangi binolar yoki asfalt yo‘llar bilangina belgilanmaydi. Inson o‘z uyidan chiqib, ko‘chada xavfsiz va qulay harakatlana olsa, farzandi maktabga bemalol qatnasa, keksalar uchun ham sharoit yaratilsa, obodlik to‘la mazmun kasb etadi.

Yangiobod mahallasida kelajak avlod uchun yaratiladigan imkoniyatlar ham e’tibordan chetda qolmayapti. Hududda 330 o‘rinli zamonaviy maktab binosi qurish reja qilingan. Hozir loyiha hujjatlari shakllantirilmoqda. Yangi ta’lim maskani sport majmuasiga ega bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Shu tariqa yangiobodlik yoshlar zamonaviy sharoitda ta’lim olish, o‘z qobiliyat va iste’dodlarini namoyon etib, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi va sport bilan shug‘ullanishi uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

— Yoshligimizdagi sharoit bilan hozirgi kundagi imkoniyatlarni qiyoslab bo‘lmaydi. U zamonlarda ko‘p narsalar juda oddiy edi, — deydi Hasan ota Rajabov. — Biz shunga ko‘nikib yashardik. Bugun zamon o‘zgardi, odamlarning talabi ham oshdi. Farzandlarimiz, nevaralarimiz yaxshi sharoitda yashashini istaymiz. Mahallamizga suv kelishi, yo‘llar asfalt bo‘lishi, elektr tarmoqlari yangilanishi, yangi maktab qurilishi biz uchun katta voqea.



Bugun Yangiobod mahallasida amalga oshirilayotgan loyihalar bir-birini to‘ldirmoqda. Bu o‘zgarishlarning barchasini birlashtirib turadigan jihat esa inson manfaatidir.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Davlatimiz rahbarining muhim minerallar sohasidagi takliflari iqtisodiy zanjirlarni shakllantirishga qaratilgan. O‘zbekistonning mineral-xomashyo bazasi kamida 3 trillion dollarga baholanmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 19-sentabr, 194-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Munosabat



TEXNOLOGIYA, SARMOYA VA INSON KAPITALI UYG‘UNLIGI

Boshlanishi 1-betda

Dunyo o‘zgaryapti. Bu o‘zgarish endi faqat yirik laboratoriyalar yoki texnologik kompaniyalarda kechayotgan jarayon emas. U fermer dalasiga, zavod sexiga, universitet auditoriyasiga, shifoxonaga, oddiy insonning kundalik hayotiga kirib kelmoqda. Shuning uchun bugun mamlakatlar o‘rtasidagi raqobat mazmuni ham o‘zgardi. Yer ostida qancha boylik borligi muhim, albatta, ammo undan ham muhim jihat bu — boylikdan qancha qo‘shilgan qiymat yarata olish, qancha yangi texnologiyani o‘zlashtirish, qancha muhandis, dasturchi, tadqiqotchi va malakali ishchi tayyorlash, sarmoya mamlakatga kirib kelganidan keyin undan qancha yangi bilim va ishlab chiqarish salohiyati hosil qila olishdir.

Seulda bo‘lib o‘tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitiga ham ana shu keng nigoh bilan qarash mumkin. Zero, bu uchrashuvda gap faqat bugungi savdo yoki investitsiya hajmi haqida bormadi. Masala ancha keng — kelgusi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyo va Koreya o‘rtasidagi hamkorlik qanday iqtisodiy mazmun kasb etishi, bu munosabatlar yangi texnologiyalar, ilm-fan va inson kapitali bilan qanday uyg‘unlashishi haqida bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining sammitda ilgari surgan tashabbuslari ham shu nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz hamkorlikni oddiy savdo munosabatlari doirasidan kengaytirib, uni uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasiga aylantirishni taklif etdi. Bu strategiyada sanoat kooperatsiyasi, investitsiya, muhim minerallar, sun’iy intellekt, ilm-fan, “yashil iqtisodiyot” va inson kapitaliga bir-biridan ajralmagan yagona tizim sifatida qaralmoqda.

Ertangi iqtisodiyotni bugungi ehtiyojlar bilan qurib bo‘lmaydi. Bugun talab yuqori kasb ertaga o‘zgarishi mumkin. Bugungi texnologiya bir necha yildan keyin eskirishi ehtimol. Energetika, suv, iqlim va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar esa mamlakatlardan uzoqni ko‘zlagan qarorlarni talab qilmoqda. Shu bois, Prezidentimiz “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi: jadal rivojlanish yo‘lidagi hamkorlik” nomli uzoq muddatli konseptual qarashni ishlab chiqishni taklif qildi.

Ushbu taklifning ahamiyatini oddiy bir misolda ham ko‘rish mumkin. Agar bugun bir korxonaga zamonaviy uskuna olib kelinsa, ishlab chiqarish hajmi ortishi mumkin. Ammo uskuna bilan birga uni boshqaradigan, dasturlaydigan, ta’mirlaydigan va keyinchalik yanada takomillashtiradigan mutaxassislar tayyorlanmasa, texnologiyaning imkoniyati to‘liq ishga tushmaydi. Demak, zamonaviy iqtisodiyotda zavod va universitet, laboratoriya va korxona, sarmoya va bilim bir-biridan uzilib qolsa, taraqqiyot zanjirida uzilish paydo bo‘ladi.

Markaziy Osiyo bu zanjirning muhim bo‘g‘ini bo‘lish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Bugun mintaqada 80 milliondan ziyod kishi yashaydi. Yalpi ichki mahsulot hajmi 500 milliard dollardan oshgan, iqtisodiy o‘sish sur’ati 6 foizdan yuqori darajada saqlanmoqda. Raqamlar ortida katta bozor, mehnat resurslari, energetika va mineral boyliklar, transport imkoniyatlari bilan bir qatorda yosh va harakatchan avlodning ulkan salohiyati turibdi.

Koreya Respublikasida esa boshqa bir muhim kapital — texnologik va innovatsion tajriba jamlangan. Qisqa tarixiy davrda bu mamlakat sanoatlashtirishdan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishgacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Shuning uchun Koreya tajribasi Markaziy Osiyo uchun tayyor qolip emas, balki resursni texnologiyaga, texnologiyani mahsulotga, mahsulotni esa global raqobatbardoshlikka aylantirish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba maktabidir.

Endi tasavvur qilaylik: Markaziy Osiyoning mineral resurslari, energetika imkoniyatlari va katta bozori Koreyaning texnologiyasi, kapitali va ilmiy salohiyati bilan tutashsa, qanday natija paydo bo‘lishi mumkin? Masalan, yer qa’ridan olingan mis shunchaki xomashyo sifatida eksport qilinmay, mamlakatning o‘zida qayta ishlanib, elektrotexnika mahsulotiga aylansa, uning atrofida



yangi korxonalar vujudga keladi. U korxonalarga muhandislar, texnologlar, dizaynerlar, logistlar kerak bo‘ladi. Yana yangi ta’lim dasturlari shakllanadi. Shu tariqa bitta konning iqtisodiy ahamiyati bir necha barobar kengayadi.

Davlatimiz rahbarining muhim minerallar sohasidagi takliflari aynan shunday iqtisodiy zanjirlarni shakllantirishga qaratilgan. O‘zbekistonning mineral-xomashyo bazasi kamida 3 trillion dollarga baholanmoqda. Yaqin yillarda muhim minerallar sohasida umumiy qiymati 4 milliard dollardan ortiq bo‘lgan 120 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Prezidentimiz Markaziy Osiyoning resurs bazasini Koreyaning moliyaviy va texnologik imkoniyatlari bilan birlashtirish, asosiy e’tiborni xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratishni taklif qildi.

> **“Seulda bo‘lib o‘tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammitiga ham ana shu keng nigoh bilan qarash mumkin. Zero, bu uchrashuvda gap faqat bugungi savdo yoki investitsiya hajmi haqida bormadi. Masala ancha keng — kelgusi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyo va Koreya o‘rtasidagi hamkorlik qanday iqtisodiy mazmun kasb etishi, bu munosabatlar yangi texnologiyalar, ilm-fan va inson kapitali bilan qanday uyg‘unlashishi haqida bo‘ldi.**

Bu maqsadda mintaqaviy investitsiyaviy alyans tashkil etish tashabbusi ham ilgari surildi. Uning mohiyati geologiya-qidiruvdan tortib, qazib olish, qayta ishlash va tayyor yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonni yagona sanoat zanjiriga birlashtirishdan iborat. Bunday yondashuv resursga emas, resurs atrofida yaratiladigan qiymatga urg‘u beradi.

Shu mantiqda O‘zbekistonda “Markaziy Osiyo — Koreya” sanoat-texnologiya parkini tashkil etish taklifi ham katta amaliy mazmun kasb etadi. Park hududida avtokomponentlar, elektrotexnika, mashinasozlik, farmatsevtika va kimyo sanoati bo‘yicha qo‘shma ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Eng muhimi, bunday park faqat zavodlar joylashadigan hudud bo‘lib qolmasligi kerak. Atrofida laboratoriyalar, muhandislik markazlari, ta’lim dasturlari va tadqiqot loyihalari shakllansa, sanoat maydoni asta-sekin texnologik ekotizimga aylanadi.

Texnologiyani o‘zlashtirishning mohiyati ham shunda. Biror uskunani sotib olish oson. Uning ishlash tamoyilini tushunish, mahalliy sharoitga moslashtirish, yangi mahsulot yaratish va keyingi avlod texnologiyasini ishlab chiqish uchun esa bilim va tajriba kerak. Shu bois, har bir investitsiya loyihasining natijasini faqat qancha dollar sarflangani yoki qancha mahsulot ishlab chiqarilgani bilan o‘lchash yetarli emas. U qancha yangi mutaxassis tayyorlagani, nechta mahalliy korxonani qiymat zanjiriga jalb etgani va qancha yangi texnologiyani iqtisodiyotga olib kirgani ham muhim.

Masala, ayniqsa, sun’iy intellekt sohasida yaqqol ko‘rinadi. Bir necha yil oldin sun’iy intellekt haqida asosan AT mutaxassislari gapirar edi. Bugun esa u zavod boshqaruvidan tibbiy diagnostikagacha, qishloq xo‘jaligidan transportgacha bo‘lgan sohalarga kirib bormoqda. Sammitda sun’iy intellekt besh yil davomida har bir mamlakat iqtisodiyotida kamida 10 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishi mumkinligi qayd etildi.

Qoraqalpog‘istonda sun’iy intellekt data markazlari uchun keng imtiyozlarga ega xab tashkil etilgani va Koreya kompaniyalarini ushbu yo‘nalishga investitsiya kiritishga jalb etish taklif qilingani ham bejiz emas. Chunki raqamli iqtisodiyotning kelajagi faqat serverlar soni bilan belgilanmaydi. Ularni ishga tushiradigan, ma’lumotlarni tahlil qiladigan, dasturlar yaratadigan va texnologiyani real muammolarga tatbiq etadigan mutaxassislar kerak.

Bir fermer uchun sun’iy intellektning qiymati uning murakkab algoritmida emas, suvni tejashga yordam berganida namoyon bo‘ladi. Zavod uchun texnologiyaning ahamiyati katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashdan ko‘ra, sifatsiz mahsulotni kamaytirishida ko‘rinadi. Shifokor uchun texnologiyaning ahamiyati yangi dasturning nomi bilan emas, bemordagi kasallikni ertaroq aniqlash imkoniyati bilan o‘lchanadi. Demak, texnologiya inson hayoti va ishlab chiqarishdagi aniq vazifalarni hal qilgandagina haqiqiy iqtisodiy kuchga aylanadi.

Shu yerda inson kapitali masalasi tabiiy ravishda birinchi o‘ringa chiqadi. Markaziy Osiyo aholisining yarmidan ko‘pini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bu — mintaqaning ulkan imkoniyati. Biroq yoshlar qatlami o‘zidan o‘zi iqtisodiy ustunlikka aylanmaydi. Buning uchun bilim, kasb, texnologiya va munosib bandlik imkoniyati kerak.



Shu bois, Prezidentimiz “buyurtma — o‘qitish — bandlik” tamoyili asosida inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirishni taklif etdi. Bu yerda gap ta’limning o‘zi bilan cheklanmaydi, butun bir zanjir haqida boradi: avval iqtisodiyotga qanday mutaxassislar kerakligi aniqlanadi, keyin shu ehtiyoj asosida kadrlar tayyorlanadi va yakunda ularning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi ta’minlanadi.

Koreya kompaniyalari, universitetlari va ilmiy markazlarini Markaziy Osiyo bilan yaqinlashtirish, yoshlarni Koreya laboratoriyalari va ilg‘or korxonalarida stajirovkadan o‘tkazish bo‘yicha takliflar shu maqsadga xizmat qiladi. Chunki yosh mutaxassis uchun ba’zan bir yillik amaliy tajriba bir necha yillik nazariy bilimdan ham katta maktab bo‘lishi mumkin. U zamonaviy uskunani ko‘radi, ishlab chiqarish madaniyatini o‘rganadi, jamoada ishlashni o‘zlashtiradi va qaytib kelgach, bu tajribani o‘z korxonasiga olib kiradi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish ham xuddi shu zanjirning davomidir. Nurafshon shahridagi Kelajak texnologiyalari markazi negizida yarimo‘tkazgichlar, sanoat mikroelektronikasi va yangi materiallarni loyihalash hamda sinovdan o‘tkazish bo‘yicha qo‘shma markaz tashkil etilayotgani kelajak texnologiyalariga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan muhim. Bunday markazlar laboratoriyada tug‘ilgan g‘oyani ishlab chiqarishga olib chiqadigan ko‘prik vazifasini bajaradi.

Farmatsevtika va biotexnologiyada ham katta imkoniyat bor. O‘zbekistonda dori-darmon va tibbiyot buyumlari bozori hajmi 3 milliard dollarga yetgan. Bozorning o‘ziyoq tadqiqot, klinik sinov va ishlab chiqarishni birlashtirgan zamonaviy biofarmatsevtika klasterini rivojlantirish uchun muhim asos bo‘la oladi. Maqsad tayyor mahsulotni ishlab chiqarish bilan cheklanmay, yangi preparat, yangi texnologiya va intellektual mulk yaratishga qodir muhitni shakllantirishdir.

Taraqqiyotning bugungi kun tartibida “yashil iqtisodiyot” ham alohida o‘rin egallamoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslariga bosim, energiyaga talabning ortishi va havo sifati bilan bog‘liq muammolar mintaqalarni umumiy yechimlar izlashga undamoqda. Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo va Koreya o‘rtasida iqlim va uglerod hamkorligi formatini yo‘lga qo‘yishni taklif etgani ham shu ehtiyojdan kelib chiqadi.

Koreyaning texnologiyalari bilan Markaziy Osiyoning “yashil” investitsiyalarga ehtiyojini birlashtirish energiyani saqlash tizimlari, qayta tiklanuvchi energiya, energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish va kam uglerodli texnologiyalarni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi mumkin. Bu jarayonda ham asosiy masala texnologiyani olib kelish bilan tugamaydi. Uni mahalliylashtirish, mutaxassislar tayyorlash va mahalliy ishlab chiqarish bilan bog‘lash zarur.

Sammitda ilgari surilgan yana bir muhim maqsad — 2030-yilga borib, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Koreya bilan savdo aylanmasini 20 milliard dollarga yetkazish. Buning uchun bozorlar o‘rtasidagi masofani qisqartirish, sertifikatlash tartiblarini soddalashtirish, standartlarni uyg‘unlashtirish, logistika va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish talab etiladi.

Shu ma’noda, sanoat va savdo vazirlari uchrashuvlari platformasini tashkil etish tashabbusi muhim amaliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Katta iqtisodiy maqsadlar doimiy muloqot va aniq muvofiqlashtirishni talab qiladi. Xomashyo bir mamlakatda, ishlab chiqarish boshqa hududda, texnologiya esa uchinchi tomonda bo‘lishi mumkin. Ular o‘rtasidagi aloqani samarali tashkil etish mintaqaviy iqtisodiy zanjirlarning raqobatbardoshligini belgilaydi.

O‘zbekistonning mazkur jarayondagi o‘rni ham tobora kengayib bormoqda. Davlatimiz rahbari Koreya va Markaziy Osiyo kompaniyalarining ilmiy-tadqiqot bo‘linmalari hamda laboratoriyalarini mamlakatimizda joylashtirish uchun sharoit yaratishga tayyor ekanini bildirdi. Bunday yondashuv O‘zbekistonning investitsiya uchun qulay maydon sifatidagi mavqeini texnologiya va ilm-fan markazi sifatidagi yangi imkoniyatlar bilan boyitadi.

Koreya bilan hamkorlikning yana bir muhim ustuni — insonlar o‘rtasidagi yaqinlik. Xalqlarimiz uchun katta avlodga hurmat, halol mehnatni qadrlash, oila va Vatanga sadoqat kabi qadriyatlar mushtarak. Markaziy Osiyoda yashayotgan koreys diasporasi ikki hudud o‘rtasidagi tarixiy va insoniy aloqalarning o‘ziga xos ko‘prigi vazifasini bajarib kelmoqda. Ma’naviy yaqinlik iqtisodiy va texnologik hamkorlik uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratadi.

Aslida, Seulda ilgari surilgan tashabbuslarning barchasini birlashtirib turgan bitta katta g‘oya bor va u Markaziy Osiyoning salohiyatini kelajak iqtisodiyotining imkoniyatlariga aylantirish g‘oyasidir. Buning uchun resurs mavjud. Uni texnologiya bilan boyitish kerak. Sarmoyani yangi ishlab chiqarish va bilimga aylantirish lozim. Yoshlarga kelajak kasblarini berish darkor. Ilmiy salohiyatni laboratoriyadan zavodga olib chiqish kerak.

Shunda hamkorlikning samarasi faqat raqamlarda ko‘rinmaydi. U yangi korxonalar, zamonaviy laboratoriyalar, o‘z sohasini chuqur biladigan muhandislar, dunyo bozoriga chiqadigan mahsulotlar, texnologiya yaratayotgan yoshlarda namoyon bo‘ladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tashabbus qanot yozdi

BARQARORLIK KAFOLATI: KICHIK BIZNESDAN YIRIK ISHBILARMONLIKKACHA HAMROH

Joriy yil 18-avgustda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida islohotlarning yangi bosqichi belgilab berildi. Jumladan, endi yangi tadbirkorlar uchun “Biznes start”, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganlar uchun “Biznes lift”, yangi o‘sish bosqichiga qadam qo‘yayotganlar uchun “Biznes yuksalish” dasturlari joriy qilindi. Shu asosda eksportchilarga tashqi bozorga chiqishning barcha bosqichlarida ko‘mak beruvchi “Eksport navigatori” tizimi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.



“Biznes start” tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish ma’nosini anglatadi. “Biznes lift” esa biznesni noldan boshlab, uni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradigan dastur. U lift singari tadbirkorni bir bosqichdan keyingi bosqichga olib chiqishni ta’minlashni nazarda tutadi.

“Biznes yuksalish” mavjud biznesni yanada kengaytirib, yangi o‘sish bosqichiga o‘tmoqchi bo‘lganlar uchun xizmat qiladi.

Shunday imkoniyatlar sababli tashabbuslar aniq natijaga aylanmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyatida 2026-yilning yanvar-iyul oylarida aholini daromadli mehnat bilan band qilish bo‘yicha belgilangan 206 mingta reja amalda 394 mingtaga bajarildi. Joriy yilning 7 oyida 44,8 ming fuqaro doimiy ish o‘rni bilan ta’minlandi. Aholi daromadini oshirish qamrovi 301 mingtaga yetkazildi. Natijada joriy yilning birinchi yarmida ishsizlik darajasi 4,6 foizga tushirildi. Shu davrda 34,7 mingdan ortiq kichik va o‘rta biznes subyektiga 3,4 trillion so‘m kredit ajratilib, 70,6 ming fuqaroning barqaror daromad manbai yaratildi.

Mazkur sa’y-harakatlar natijasini Sho‘rchi tumanida tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, sho‘rchilik Tojinor Eshonqulova maishiy xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida tadbirkorlik faoliyatini ancha yillar avval boshlagan edi. Ilk qadamlar, albatta, oson kechmadi. Ammo yillar davomida to‘plangan tajriba va muhimi, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan qulay muhit uning faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Hozir Tojinor Eshonqulova biznesini izchil kengaytirib, 50 dan ortiq inson uchun ish o‘rni yaratgan. Yaqinda u tumanda yana bir savdo nuqtasini ochdi. Shu orqali yana 5 xotin-qizning bandligi ta’minlandi.

— Avval mustaqil holda tadbirkorlikni boshlashdan qo‘rqardik. Sababi, asosli-asossiz tekshirishlar holdan toydirardi. Hozir hammasi shaffof. Davlat idoralari sizga ko‘makchi. Bilganingizni qo‘llab-quvvatlaydi, bilmaganingizni o‘rgatadi. Hozir faoliyatimni kengaytirishdan sira qo‘rqmayman. Chunki ishonch bor, — deydi tadbirkor Tojinor Eshonqulova.

Sho‘rchi tumanining Navro‘z mahallasida faoliyat yuritayotgan tadbirkor Anvar Saidov



imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan ishbilarmon. U 40 turdagi mebel mahsulotlari ishlab chiqarmoqda.

— 2023-yilda 2 milliard so‘m imtiyozli kredit hisobiga zamonaviy uskunalar olib kelgandik. Natijada ishlab chiqarish quvvati oshdi, — deydi Anvar Saidov. — Shu yillar davomida mahsulot turlarini ko‘paytirdik. Natijada korxonamiz faoliyati yuqori bosqichga chiqib, bozor talabiga mos, raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash imkoniyatimiz oshdi.

Mebelsozlikda yaxshi iqtisodiy samara bor. Chunki xomashyo tayyor mahsulotga aylantirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratadi. Mahsulot turi ko‘payishi esa savdo hajmi va daromad manbalarini diversifikatsiyalash imkonini beradi.

Sho‘rchi tumanida xorijiy tadbirkorlar ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda. Ulardan biri afg‘onistonlik ishbilarmonlar tomonidan ochilgan un zavodidir. Korxona faoliyatini boshlagan kezlarda kuniga 60 tonna un chiqarish quvvatiga ega edi. Hozir bu hajm ikki barobar oshdi.

— Korxonamiz uchun bug‘doyni Sho‘rchi tumani va unga yaqin hududlardagi fermer hamda xo‘jaliklardan sotib olamiz. Bu degani, faoliyatimiz orqali mahalliy qishloq xo‘jaligi, transport, savdo va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlik bor. Muhimi, biz kabi xorijlik tadbirkorlarning yurtingizda o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi chetdan keladigan



investorlar uchun yaratilgan ishonchli, barqaror muhit borligidan dalolat, — deydi korxona ish yurituvchisi Ulug‘bek Aziziy.

Chekka hududlarda ham tadbirkorlikka birdek imkoniyat yaratilayotganini Bunyodkor mahallasidagi qandolatchilik sexi misolida ko‘rish mumkin. Ayni paytda bu yerda 20 ga yaqin mahalliy aholi doimiy mehnat bilan band. Ishlab chiqarish yangi daromad manbaini yaratdi.

Mamlakatimizda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning yangi bosqichi tadbirkorga faqat kredit ajratish emas, balki uning dastlabki qadamidan toki faoliyatini kengaytirib, yirik ishbilarmonga aylanishigacha ko‘mak berishga qaratilgan. Banklar kredit portfelida kichik biznes ulushining 45 foizdan 63 foizga oshgani, joriy yilning birinchi yarmida kichik va o‘rta biznesga 76,5 trillion so‘m resurs ajratilgani ham mazkur yo‘nalishdagi e’tibor ko‘lamini ko‘rsatadi. Demak, bu kabi kichik ishlab chiqarishlar kelgusida yangi quvvatlar, mahsulotlar va yanada ko‘proq ish o‘rinlariga asos bo‘ladi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!


KO‘ZGU 5

2026-yil 19-sentabr, 194-son



KELAJAK UZOQDA EMAS

U BUGUNDAN BOSHLANADI



Oybek OSTONOV,
tarix fanlari doktori,
dotsent

Bir oilada odatda bir vaqtning o‘zida uch avlod yashaydi: bobo, ota va nabira. Uchalasi ham bir mamlakatda, bir tilda, bir bayroq ostida umr kechiradi. Lekin ularga “Mustaqillik senga nimani anglatadi?” degan bitta savol berilsa, javoblar bir-biridan tubdan farq qiladi. Mana shu farqning o‘zi 35 yillik yo‘lning eng qisqa, ammo eng aniq tavsifi.

35 yil inson umri uchun katta davr. Davlat tarixi uchun esa juda qisqa masofa. Lekin bir xalqning taqdirida bu masofa butun bir burilish nuqtasiga aylanishi mumkin. Savol odatda shunday qo‘yiladi: mustaqillik bizga nima berdi? Bu to‘g‘ri, lekin yarim savol. Unga parallel yana bir savol qo‘shilishi kerak: mustaqillik bizdan nimani talab qildi va bugun nimani talab qilmoqda? Prezidentimizning mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan qarorida urg‘u endi aniq kelajakka ko‘chirilgan. Unda bu masofa “yakunlangan yo‘l” emas, “davom etayotgan jarayonning bir nuqtasi” sifatida tilga olingan. Til o‘zgarishi tasodifiy emas. U shuni ko‘rsatadiki, davlatning o‘zi ham mustaqillikni statik holat emas, har kuni qayta qo‘lga kiritiladigan jarayon sifatida qabul qilmoqda.

Imkoniyatdan natijagacha

O‘ttiz besh yillik yo‘lni uch mantiqiy bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda, taxminan 1991-2016-yillarda asosiy vazifa davlatchilikning tayanch ustunlarini qurish edi: milliy pul-kredit tizimi, sud-huquq tuzilmasi, chegara va boj xizmati, diplomatik korpus. Bu poydevor davri.

Ikkinchi bosqich — 2017-2021-yillarda iqtisodiyotning, valyuta bozorining erkinlashuvi, tadbirkorlik uchun to‘siqlarning qisqarishi va tashqi siyosatning ochilishi ro‘y berdi. Bu ochilishning miqdoriy izini qo‘shnichilik savdosida ko‘rish mumkin. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda Markaziy Osiyo davlatlari O‘zbekistonning umumiy tashqi savdosida atigi o‘ndan bir qismi — 10,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, besh yil o‘tib bu ko‘rsatkich 15,1 foizga ko‘tarildi. Bir qarashda ikki foiz banddan besh foiz bandgacha bo‘lgan farq arzimas tuyulishi mumkin. Lekin savdo hajmi o‘lchovida bu yarim barobarga yaqin o‘sishni anglatadi. Ya’ni qo‘shnichilik endi faqat diplomatik uchrashuvlar mavzusi emas, tadbirkorning hisob-kitobiga kiruvchi omilga aylangan.

Uchinchisi, bugungi bosqich 2022-2026-yillar va undan keyingi davr. Chunki natija endi bino qurish yoki qonun qabul qilish bilan emas, millionlab insonning bilimi va mehnati bilan o‘lchanadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat iqtisodiyoti tarixda birinchi marta 145 milliard dollardan oshdi. Vaholanki, 2024-yilda 115 milliard dollar edi. YIM o‘sishi 7,7 foizni tashkil etdi. 2026-yilning birinchi choragida esa o‘sish sur’ati 8,5 foizgacha tezlashdi. Lekin raqamlar ortida nima turadi? Aynan shu savolga javob berish uchun “imkoniyat” va “salohiyat” tushunchalari orasidagi farqni ochish kerak.

Nazariy formula

Imkoniyat bu hali ro‘yobga chiqmagan kuch, potensial. U o‘z-o‘zidan natijaga aylanmaydi: imkoniyat, institutlar, bilim, texnologiya va mehnat birikib salohiyatga aylanadi. Yosh aholi — imkoniyat. Sifatli ta’lim uni salohiyatga aylantiruvchi mexanizm. Texnologiya unumdorlikni oshiruvchi vosita. Institutlar esa natijani butun jamiyatga masshtablashtiruvchi muhit.

Buni bir misolda ko‘rish mumkin. Ikki xo‘jalik bir xil yer maydoniga, bir xil suv resursiga ega bo‘lishi mumkin bu — imkoniyat. Ammo ulardan biri zamonaviy agrotexnologiyani o‘zlashtirsa, ikkinchisi eski usulda qolsa, natija tubdan farqli bo‘ladi. Farq resursda emas, uni qanday ishlatishda.

Biroq bu formulaning qarshi tomoni ham bor. 2025-yilda mamlakat eksporti 23 foiz oshib, 33,4 milliard dollarga yetdi. Ajoyib natija. Lekin shu eksportning qariyb 30 foizi, taxminan 9,9 milliard dollari oltin hissasiga to‘g‘ri keldi. Tabiiy boylik bu ham imkoniyat, lekin u hali to‘liq texnologik zanjir orqali qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotga aylanmagan. Demak, imkoniyat hamma joyda bir xil tezlikda salohiyatga aylanayotgani yo‘q. Bu borada mamlakat hali yo‘lning yarmida turibdi.

Mana shu umumiy formulani besh turdagi — inson, iqtisodiy, intellektual-texnologik, energiya-suv, ijtimoiy-milliy kapital orqali sinab ko‘rish mumkin. Birinchisi, eng muhimi, chunki qolgan to‘rttasi unga bog‘liq.

Raqam ortidagi taqdirlar

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil boshida O‘zbekiston aholisi 39 million nafardan oshdi, o‘rtacha yosh esa 29,5 yoshni tashkil etdi. Bu jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi (30,9 yosh)dan past, ya’ni mamlakat demografik jihatdan jahon bo‘yicha nisbatan yosh hisoblanadi. Shu manbaga ko‘ra, har to‘rtinchi fuqaro 14-30 yosh oralig‘ida.

Bu yerda oddiy foiz ko‘rsatkichi ortida ko‘p qatlamli masala yashiringan. Demografiya o‘zi na yaxshi, na yomon. U neytral omil, uning ijobiy yoki salbiy natijaga aylanishi to‘liq ravishda qanday institutsional javob berilishiga bog‘liq. Xitoy, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar XX asrning ikkinchi yarmida xuddi shunday “yoshlar to‘lqini”dan foydalanib, iqtisodiy sakrashga erishgan. Bu “demografik dividend” deyiladi. Ammo tarix boshqa misollarni ham biladi: agar yoshlarga ish o‘rni va istiqbol berilmasa, xuddi shu demografik kuch ijtimoiy beqarorlik omiliga aylanishi mumkin. Demak, to‘qqiz yarim million yosh natija emas, u faqat savolning qo‘yilishi: biz bu salohiyatni qaysi ssenariy bo‘yicha ishlatamiz?

Aynan shu dilemmaga javob sifatida joriy yilda “Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Unda har yili 600 ming nafar yoshning bandligini ta’minlash, 2030-yilga qadar 900 ming yoshni volontyorlik harakatiga jalb etish, o‘quv markazlari sonini 90 mingtaga yetkazish, 450 ming nafar yoshning xorijiy tilni B2 darajasida egallashi kabi aniq o‘lchanadigan vazifalar belgilangan. Ushbu hujjatning o‘ziga xos jihati, unda niyatlar emas, nazorat qilish mumkin bo‘lgan mezonlar qayd etilgan. Besh yildan keyin bu raqamlar bajarilgan yoki bajarilmaganini aniq tekshirish mumkin bo‘ladi.

Tuman markazidagi oddiy maktabni tugatgan yigit yoki qiz onlayn kurslar orqali dasturlashni o‘rganib, xorijiy kompaniya uchun masofadan turib ish qilishi, oylik daromadi esa ota-onasi bir umr orttirgan daromaddan ko‘p bo‘lishi bir necha yil oldin istisno edi, bugun tendensiyaga aylanmoqda. Ammo bu imkoniyat hali hamma uchun barobar emas. Poytaxt bilan uzoq tuman o‘rtasidagi raqamli va ta’lim tengsizligi hamon sezilarli.

Ta’lim tizimining negizida sodir bo‘layotgan o‘zgarishni bir qiyosda ko‘rish mumkin. Besh yil oldin — 2021/2022-o‘quv yilida mamlakat oliy ta’lim tizimida 808 mingga yaqin yosh tahsil olgan bo‘lsa, bugungi kunda bu son 1,5 milliondan oshgan. Amalda deyarli ikki barobar ko‘paydi. Bunga o‘xshash dinamika maktabgacha ta’limda ham kuzatiladi. Qamrov darajasi 27 foizdan 72 foizga ko‘tarildi. Muassasalar soni esa besh mingdan 30 mingga yetdi. Bu ikkita raqamni birga o‘qish kerak: agar bugungi 3-4 yoshli bola ertaga maktabga, undan keyin oliy ta’limga kirish ehtimoli ortgan bo‘lsa, demak, “poydevor” bilan “natija” o‘rtasidagi zanjir asta-sekin to‘liq ishlay boshlagan. Boshqacha aytganda, bu “imkoniyat” deb ataladigan abstraksiya emas, aniq vaqt oralig‘ida o‘lchab bo‘ladigan institutsional natija.



Resursdan qo‘shilgan qiymatga

XXI asrda iqtisodiy mustaqillik faqat tabiiy resursga egalik qilish emas, balki uni texnologiya, bilim va moliya orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga aylantira olish qobiliyati ham. Xom paxta tonnasi bilan undan tikilgan tayyor kiyim-kechak partiyasining bozor qiymati orasidagi farq bu shunchaki raqam emas, balki bir xil xomashyodan necha barobar ko‘p daromad va ish o‘rni yaratish imkoniyatining o‘lchovi.

2025-yilda mamlakatga jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 43,1 milliard dollarni tashkil etdi. Bu YIMning 31,9 foiziga teng. Oltin-valyuta zaxiralari esa tarixda birinchi marta 60 milliard dollardan oshdi. Shu davr ichida kambag‘allik 8,9 foizdan 5,8 foizgacha qisqardi, ishsizlik esa 5,5 foizdan 4,8-4,9 foizgacha tushdi.

Bu to‘rt raqamni yonma-yon qo‘yib ko‘raylik. Investitsiya hajmi oshgan, zaxira ko‘paygan, kambag‘allik kamaygan, ishsizlik pasaygan — to‘rttasi ham bir yo‘nalishga ishora qiladi. Lekin shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: bu tasodifmi yoki zanjirmi? Iqtisodiy nazariya bunga aniq javob beradi: investitsiya yangi ish o‘rni yaratadi, ish o‘rni daromadni oshiradi, oshgan daromad esa kambag‘allik chegarasidan chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Demak, bu to‘rt raqam to‘rt alohida yutuq emas, bitta iqtisodiy zanjirning to‘rt bo‘g‘ini. Rasmiy hisobotlarga ko‘ra, bir yil ichida 300 mingdan ortiq oila kambag‘allik chegarasidan chiqqani zanjirning oxirgi, eng muhim natijasi.

Ammo bir jihatni ham ko‘rsatib o‘tish kerak. Yuqorida aytilganidek, eksportning qariyb 30 foizi oltin. Bu yerda ikki xil xulosa chiqarish mumkin va farq ularning qaysi birini tanlashda. Birinchisi, yuzaki xulosa: “oltin qimmat, demak, yaxshi”. Ikkinchisi, chuqurroq xulosa: agar daromadning uchdan bir qismi bitta metalning jahon birjasidagi narxiga bog‘liq bo‘lsa, bu mamlakat o‘z qo‘lida bo‘lmagan omilga qaramlik degani. Oltin narxi ertaga pasaysa, bu raqam ham boshqacha bo‘ladi. Vaholanki, texnologiya yoki ta’lim orqali yaratilgan qiymat bunchalik tebranishga uchramaydi. Aynan shu farq “imkoniyat” (yer ostidagi zaxira) bilan “salohiyat” (uni barqaror daromadga aylantiruvchi tizim) orasidagi masofaning amaliy ko‘rinishi.

Agar oltin yerdan olinadigan, takrorlanmaydigan boylik bo‘lsa, dasturiy mahsulot inson miyasida yaratiladigan, cheklanmagan boylik. Ikkisining narxi ham o‘zgarishi mumkin. Lekin farq shundaki, bittasi tugaydi, ikkinchisi esa ko‘payaveradi. Shu bilan birga, ijobiy tendensiya ham bor. 2026-yilning birinchi yarim yilligida oltinsiz eksport 32,2 foiz oshib, 14,4 milliard dollarga yetdi. Demak, diversifikatsiya jarayoni boshlangan, lekin u hali oltinning o‘zi kabi tezlikda o‘smayapti. Diversifikatsiyaning yagona uzoq muddatli yo‘li — texnologiya.

> **Mustaqillik bir marta qo‘lga kiritiladigan huquq emas. U har bir avlod o‘z bilimi, mehnati va mas’uliyati bilan qayta-qayta mustahkamlab boradigan jarayon. Va bugun yosh mutaxassis, tadbirkor, o‘qituvchi, dehqon, olim, kim bo‘lishidan qat’i nazar, har bir fuqaro shu jarayonning shunchaki tomoshabini emas, ishtirokchisi. Kelgusi 35-yil uzoqdagi kelajakda emas, bugun, hozir boshlanadi.**

Iste’molchidan yaratuvchiga

XIX-XX asrlarda sanoat quvvati va tabiiy resurslar iqtisodiy mustaqillikning asosiy omili bo‘lgan, bugun esa bu ro‘yxatga ma’lumot, algoritm va sun’iy intellekt qo‘shildi. Yuqorida aytilgan “tugaydigan boylik va tugamaydigan boylik” farqini eslaylik. O‘zbekiston 2030-yilga qadar AT xizmatlari va dasturiy mahsulotlar eksportini 5 milliard dollargacha yetkazishni maqsad qilgan. Bu soha atigi sakkiz-o‘n yil oldin yillik bir million dollarlik eksportni ham tashkil etmagandi. Boshqacha aytganda, davlat ikki turdagi eksportni yerdan olinadigan va miyadan yaratiladiganini parallel ravishda rivojlantirishga harakat qilmoqda, lekin ularning o‘sish sur’ati hali teng emas.

Texnologik jihatdan mustaqil bo‘lmagan davlat siyosiy mustaqilligini uzoq muddatda qay darajada ta’minlay oladi? Bu savolning javobi ikki xil ssenariyga bog‘liq. Agar mamlakat faqat tayyor dasturiy mahsulotni iste’mol qilsa, bu yangi shakldagi qaramlik. Agar o‘z mutaxassisini tayyorlab, o‘z mahsulotini yaratsa bu — yangi shakldagi mustaqillik.

Bu borada xorijda tahsil olib, vatanga qaytgan mutaxassislarning roli alohida ahamiyatga ega. Yigirma yil oldin xorijiy universitetni tugatgan yosh mutaxassis uchun O‘zbekistonga qaytish ko‘pincha iqtisodiy jihatdan oqlanmas edi. Na laboratoriya, na zamonaviy ish muhiti bor. Bugun bu manzara asta-sekin o‘zgarmoqda. 2026-yilda mamlakatning to‘rt shahrida data-markazlar, ikkita superkompyuter va o‘n besh oliygohda sun’iy intellekt laboratoriyasi ishga tushirildi yoki tushirilmoqda. Bu xorijda tajriba orttirgan mutaxassis uchun vatanida ishlashni istisno emas, oqilona tanlovga aylantiruvchi infratuzilma. BMTning elektron hukumat indeksida dunyoning yetakchi 30 davlati qatoriga kirishni maqsad qilish ham shu yo‘nalishning davomi. Bu raqamlargina emas, davlat xizmatlarining fuqaro uchun qulayligi va shaffofligining o‘lchovi.

Aniq strategik ustunlar

Mustaqillikning klassik tushunchasida energetika va suv masalasi fon vazifasini bajarib kelgan bo‘lsa, bugun ular markaziy masalaga aylanmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, qayta tiklanuvchi manbalar orqali elektr ishlab chiqarish so‘nggi yillarda 25 barobar ko‘paygan. Bu tendensiya davom etsa, o‘n yil ichida mamlakat energiya balansining yarmidan ko‘pi, taxminan 54-60 foizi aynan quyosh va shamoldan ta’minlanishi mumkin. Bu raqamni boshqa bir dalil bilan qiyoslash o‘rinli: so‘nggi besh yilda sohaga 19 milliard dollardan ortiq xususiy investitsiya kirgan. Demak, gap davlat subsidiyasida emas, tijorat kapitalining o‘zi bu yo‘nalishni rentabelli deb topgan. Bu esa energetik islohotning barqarorligidan darak beradi. Subsidiya tugashi bilan to‘xtaydigan loyiha emas, o‘z-o‘zini oqlaydigan tarmoq shakllanmoqda.

Joriy yil aprelida qabul qilingan tegishli farmonda, jumladan, og‘ir toifadagi mahallalarda kichik quvvatdagi quyosh stansiyalarini o‘rnatish alohida ko‘zda tutilgan. Energetik siyosat eng boy hududdan emas, eng ehtiyojmand mahallalardan boshlanmoqda. Ya’ni “yashil” islohot bir vaqtning o‘zida ijtimoiy adolat vositasiga ham aylantirilmoqda.

Xuddi shunday mintaqaviy suv-energetika hamkorligi ham jadallashmoqda. Joriy yil iyunida Toshkent, Bishkek va Ostona vakillari yozgi mavsumda suv va energetika resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha kelishib oldi. Shu yilning boshida esa Jahon banki Markaziy Osiyoda mintaqaviy elektr bozorini yaratishga qaratilgan yirik dasturni ma’qulladi. Suv xavfsizligiga milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida qarash endilikda ehtiyotkorlik emas, zarurat. Markaziy Osiyoda suv taqchilligi va iqlim o‘zgarishi kelgusida nafaqat ekologik, balki to‘g‘ridan to‘g‘ri oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizlik masalasiga aylanishi ehtimoli katta.

Tabiiy resurslarni boshqarish yolg‘iz amalga oshmaydi. U qo‘shnichilik sifatiga bog‘liq. Mintaqa birgalikda o‘ylamasa, hech bir alohida davlat o‘z suv xavfsizligini uzoq muddatda ta’minlay olmaydi.

2026-yil 19-sentabr, 194-son

O‘zlik va ochiq dunyo

Mustaqillik faqat iqtisod va texnologiya bilan cheklanmaydi. Yosh avlodning dunyo-qarashi bugun ikki qutbda shakllanmoqda: milliy qadriyatlarga sadoqat va xorijiy tilga, zamonaviy bilimga ochiqlik. Global dunyoga ochiq bo‘lgan holda milliy o‘zlikni qanday saqlash mumkin? Javob bu ikki jihatni zid qutblar deb emas, bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlar sifatida qarash. O‘zligini yo‘qotmagan, ammo dunyo bilan erkin muloqot qila oladigan avlodgina mamlakatni haqiqiy raqobatbardosh qila oladi.

Haqiqiy mustaqillik izolyatsiya emas, o‘z milliy manfaatlarini himoya qilgan holda ochiq va faol hamkorlik qilish qobiliyati. So‘nggi ikki yildagi Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo — Rossiya va shunga o‘xshash sammitlar, mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlari, shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan uch tomonlama muzokaralar — bular barchasi ko‘p yo‘nalishli, balanslashtirilgan tashqi siyosatning amaliy ko‘rinishi. Shu qatorda O‘zbekiston 2026-yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonini yakunlashga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Bu izolyatsiya emas, qoidaga asoslangan xalqaro tizimga integratsiya yo‘li.

“O‘zbekiston — 2030”: zanjirning yakuni

2023-yilda imzolangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mana shu zaminga qurilgan: u besh ustuvor yo‘nalish bo‘yicha yuzga yaqin maqsadni qamrab oladi. Qizig‘i shundaki, agar bu besh yo‘nalishni sinchiklab ko‘rsak, ular yuqorida tahlil qilingan besh kapital turiga deyarli to‘g‘ri keladi: iqtisodiy o‘sish maqsadi iqtisodiy kapitalga, ta’lim-tibbiyot maqsadi inson kapitaliga, ekologiya energiya-suv xavfsizligiga, adolatli davlat ijtimoiy kapitalga, xavfsizlik kafolati esa milliy-madaniy va geosiyosiy barqarorlikka mos keladi. Bu tasodif emas: rasmiy strategiya ham, ushbu maqolada qo‘llanilgan tahliliy model ham bir xil amaliy haqiqatdan — mamlakat taraqqiyoti besh yo‘nalishda bir vaqtda harakatlanishi kerakligidan kelib chiqadi. Va aynan shu bog‘liqlik zanjirni hosil qiladi: sifatli ta’limsiz raqobatbardosh iqtisodiyot, barqaror iqtisodiyotsiz ijtimoiy sohaga sarf-xarajat, ishonchli institutlarsiz esa investitsiya ham, tinchlik ham mustahkam bo‘lmaydi.

2040-yilda O‘zbekiston qanday bo‘lishi kerak?

Bu savolga bir jumla bilan javob berish qiyin, lekin yo‘nalishni belgilash mumkin. Demografiya, texnologiya, iqtisodiyot va energetikadagi hozirgi tendensiyalarga asoslanib aytish lozimki, 2040-yilga kelib O‘zbekiston xomashyo emas, bilim va texnologiya eksport qiladigan, yoshlari chetga ketish emas, chetdan qaytish yo‘lini tanlaydigan, suv va energiyani tejab ishlatadigan, davlat xizmatlari to‘liq raqamlashgan mamlakatga aylanishi kerak. Rasmiy fiskal prognozlarga ko‘ra, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot keyingi uch-to‘rt yil ichida sezilarli o‘sishi, energetikada qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 2035-yilga borib 60 foizdan oshishi kutilmoqda. Ayrim demografik prognozlarda esa aholi soni 2050-yilga borib ancha ortishi taxmin qilinmoqda. Bu hali rasmiy maqsad emas, ekspertlar bahosi, lekin u ham mas’uliyatni oshiruvchi omil. Ko‘proq aholi, ko‘proq ish o‘rni, ko‘proq ta’lim sig‘imi, ko‘proq infratuzilma talab etadi.

2040-yilgi O‘zbekiston bugun belgilanadigan tizimlar, bugun tarbiyalanadigan kadrlar va bugun qabul qilinadigan qarorlar natijasida shakllanadi. Shu ma’noda, 2040-yil uzoqdagi orzu emas, bugungi ishning davomi.

Xulosa

Mustaqillikning 35 yilligi o‘tgan yo‘lga qo‘yilgan nuqta emas, kelajak oldidagi mas’uliyatni anglash nuqtasidir. Yuqorida eslatilgan qarorda bu mas’uliyat aniq ifodalangan: 35 yillik mustaqillik “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan g‘oya ostida nishonlanmoqda. Bu shior shunchaki bayram nomi emas, kelgusi yillar uchun yo‘nalish ko‘rsatuvchi g‘oya.

Buni bir oila misolida ham ko‘rish mumkin. Minglab oilalarga xos umumlashtirilgan bir syujet orqali. Bobo 1991-yilda, eski tizim qulab, yangisi hali shakllanmagan paytda oila boshlig‘i edi. Uning uchun mustaqillik, avvalo, noma’lumlik va qayta qurish sinovi edi. Ota 2000-yillarda voyaga yetdi. U uchun mustaqillik allaqachon tabiiy muhit, lekin imkoniyat doirasi hali tor edi. Nabira esa bugun maktab partasida o‘tiribdi. Uning uchun mustaqillik muhokama qilinmaydigan haqiqat. Uning qo‘lida na sovet davrining og‘irligi, na 1990-yillar tangligining xotirasi yo‘q. Uch avlod uch xil savol: bobo uchun “qanday omon qolish?”, ota uchun “qanday o‘rnashish?”, nabira uchun esa “qanday raqobatbardosh bo‘lish?”.

Mana shu uchinchi avlod — nabiralar avlodi ertaga mamlakatning taqdirini belgilaydi. Ularning qo‘lida imkoniyat ko‘p: demografiya ham, tabiiy boylik ham, geografik o‘rin ham, tarixiy meros ham — barchasi hamon qo‘limizda. Ammo imkoniyat o‘z-o‘zidan natija emasligini biz allaqachon ko‘rdik. U bilim va mehnat orqali salohiyatga aylanadi yoki e’tiborsiz qoldirilib, asta-sekin so‘nadi. Oraliq holat yo‘q.

Shu bois, yakuniy xulosa sodda: mustaqillik bir marta qo‘lga kiritiladigan huquq emas. U har bir avlod o‘z bilimi, mehnati va mas’uliyati bilan qayta-qayta mustahkamlab boradigan jarayon. Va bugun yosh mutaxassis, tadbirkor, o‘qituvchi, dehqon, olim, kim bo‘lishidan qat’i nazar, har bir fuqaro shu jarayonning shunchaki tomoshabini emas, ishtirokchisi. Kelgusi 35 yil uzoqdagi kelajakda emas, bugun, hozir boshlanadi.

Biz karvon bilan faqat so‘z olib bormaymiz. Biz muloqot olib boramiz. Fikr olib boramiz. Ishonch olib boramiz. Eng muhimi, insonga uning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni va mas’uliyatini his ettirishga harakat qilamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 19-sentabr, 194-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Nurli manzillar

Karvon deganda ko‘z oldimizga o‘zi bilan yuk va xabarlar olib, ularni manziliga yetkazish istagida uzoq yo‘lga otlangan yo‘lovchi jamoa keladi. Bizning “Ma’rifat karvoni”miz ham yo‘lga tushdi, biroq uning yuki boshqacha. Uning yuki — kitoblar, g‘oyalar, fikr, savol va mulohazalar hamda shukronalik. Manzili esa viloyat markazlarigina emas, balki tuman, mahalla, tashkilot, ta’lim muassasalari hamda eng asosiysi, odamlar qalbidir.



Baxtiyor HUSANOV,
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati raisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MA’RIFAT KARVONI

Vatanparvarlik tafakkurimizda yuksaladi

Shu ma’noda, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Ma’rifat karvoni”ni oddiy targ‘ibot tadbirlari silsilasi deb qarab bo‘lmaydi. Bu fikrni joylarga olib borish, uni muhokama qilish, odamlarning savollariga javob izlash, eng muhimi, islohotlar mazmun-mohiyatini hayotiy misollar bilan anglatishga qaratilgan ma’rifiy harakatdir.

Bugun odamlarga balandparvoz gap emas, ishonchli dalil kerak. Quruq shior emas, hayotiy misol kerak. Bir tomonlama ma’ruza emas, ochiq muloqot qiziq. Shuning uchun biz bu safarni, avvalo, o‘zimizdan boshladik.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, targ‘ibotchi shunchaki notiq emas.

Prezidentimizning mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi o‘tgan o‘ttiz besh yillik taraqqiyot yo‘lini sarhisob qilish bilan birga oldimizda turgan yangi vazifalarni ham aniq belgilab berdi. Nutqda inson qadri, erkinlik, iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim, tibbiyot, yoshlar, ilm-fan, sun’iy intellekt va intellektual salohiyat kabi o‘zaro bog‘liq ulkan masalalar bir butun taraqqiyot manzarasi sifatida namoyon bo‘ldi.

“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zolari orasidan eng munosib olimlar, professor-o‘qituvchilar, ijodkorlar, ma’naviyat va ma’rifat sohasi vakillari, yetuk salohiyatli ziyolilar saralandi. Zero, targ‘ibotchi, avvalo, o‘zi ishongan narsasigagina boshqalarni ishontira oladi. Biz targ‘ibotchini minbarga chiqib gapiradigan inson emas, jamiyat bilan muloqot qiladigan ziyoli sifatida ko‘ramiz. Uning vazifasi tayyor javobni aytishgina emas. U savolni eshitishi ham kerak. Ba’zan esa odamning bitta savoli butun bir ma’ruzadan ta’sirliroq bo‘ladi.

“Ma’rifat karvoni”ning bugungi faoliyatini uch bosqichli jarayon sifatida ko‘rish mumkin. Birinchi bosqich — respublika miqyosidagi tayyorgarlik. Avvalo, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining olimlardan iborat a’zolari ishtirokida seminar tashkil etildi. Prezidentimiz nutqining asosiy g‘oyalari, unda keltirilgan raqamlar, islohotlarning falsafasi va natijalarini qanday talqin etish masalalari muhokama qilindi. Keyin bu ish vazirlik va idoralar, hududlar kesimida davom ettirildi. Ya’ni biz “Nima deyish kerak?” degan savol bilan cheklanmadik. “Qanday qilib inson shuuriga yetkazish kerak?” degan savolni ham o‘rtaga qo‘ydik.

Ikkinchi bosqich hududlarga chiqishdan iborat edi. Viloyatlarda “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zolari uchun seminar-treninglar o‘tkazildi. Respublikadan borgan olimlar, ziyolilar va mutaxassislar tajribalarini mahalliy targ‘ibotchilar bilan o‘rtoqlashdi.

Eng muhimi, bu yerda tayyor matnni ko‘chirib olishga emas, fikrlash, dalil keltirish va muloqot qilish mahoratiga e’tibor qaratildi.

Uchinchisi esa, menimcha, eng muhim bosqichdir. Chunki endi hududlarda saralangan, tayyorlangan targ‘ibotchilarning o‘zi tumanlar, shaharlar, tashkilotlar, ta’lim muassasalari va jamoalarga chiqib, uchrashuvlar, suhbatlar, ochiq muloqotlar o‘tkazadi.

Bir karvon minglab muloqotlarga aylanadi. Bu jarayonning kuchli tomoni ham shunda. Hozirga qadar vodiy viloyatlari — Andijon, Farg‘ona, Namangan, shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Navoiy, Buxoro kabi hududlarda ma’rifiy seminar va uchrashuvlar tashkil etildi. Turli hududlarda turlicha xarakter, turli muammo va ehtiyojlar mavjud. Ammo bitta umumiy nuqta bor: bu — inson.

Prezidentimiz nutqidagi “inson qadri” g‘oyasi aynan shu yerda o‘zining haqiqiy mazmunini ochadi. Chunki Toshkentda aytilgan raqam Farg‘onada bir oilaning hayoti bilan, Namanganda bir yoshning orzusi bilan, Buxoroda bir olimning izlanishi bilan, Qoraqalpog‘istonda bir insonning ertangi kunga ishonchi bilan tutashadi. Shuning uchun biz targ‘ibot jarayonida raqamlarni shunchaki sanab o‘tmaslikka harakat qilyapmiz. Masalan, Farg‘ona viloyatida 2025-yilda 3-7 yoshli 306 ming, ya’ni 86,4 foiz bola maktabgacha ta’limga qamrab olingani haqida rasmiy ma’lumot bor. Viloyatda ayni paytda 4318 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Endi shu raqamni oddiy statistika sifatida emas, bir ona taqdiri orqali tasavvur qilib ko‘raylik. Bola bog‘chaga boryapti. Ona esa ishlayapti, kasb o‘rganyapti, tadbirkorlik qilyapti yoki o‘zini rivojlantiryapti. Demak, bitta bog‘cha o‘rni ortida ba’zan butun bir oilaning imkoniyati kengayadi.



Andijondagi maktabgacha ta’lim qamrovining yillar davomida sezilarli o‘sishi haqidagi ma’lumotlar ham shu haqiqatni ko‘rsatadi. Namanganning Uychi tumanida esa 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasining 2016-yildagi 32 foizdan 2025-yilda 95,6 foizga yetgani kabi raqamlar islohotning hududdagi aniq ifodasini ko‘rsatadi.

Bu raqamlarning har biri ortida inson bor. Shuning uchun raqamlar biz uchun maqsad emas. Raqam inson hayotidagi o‘zgarishni ko‘rsatadigan mezon hisoblanadi. Inson qadri esa shior emas, o‘z o‘lchovlariga ega siyosatdir.

Prezidentimiz nutqidagi eng katta g‘oyalardan biri, menimcha, shu: iqtisodiy o‘sishning o‘zi taraqqiyotning oxirgi maqsadi emas. Iqtisodiyot inson uchun ekanini, investitsiya yangi imkoniyatlar yaratishini, sanoat ish o‘rinlarini ko‘paytirishini, ta’lim inson kapitali manbai ekanini, tibbiyot inson umri va salomatligini ta’minlashini, texnologiyalar esa inson imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini yaxshi bilamiz. Bir so‘z bilan aytganda, bular inson qadrini oshiruvchi tushunchalardir. Shu bois, “inson qadri” tushunchasi ham mavhum ibora bo‘lib qolmaydi. Demak, uni qaysidir darajada o‘lchash mumkin.

Masalan, qancha odam ishli bo‘lgani, qancha oila kambag‘allikdan chiqqani, qancha bola bog‘chaga qamrab olingani, qancha yoshlarimiz o‘zi istagan yo‘nalishda oliy ta’lim olayotgani, qancha xotin-qizlarimiz Uchinchi Renessansning yangi qiyofasi bo‘lib ilm-fanga kirib kelayotgani, qancha bemor o‘z hududida sifatli davolanish imkoniga ega bo‘lgani, qancha yosh o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygani va, eng muhimi, qanchasi ertangi kuniga ishonch bilan qarayotgani... Bularning barchasi islohotlarning inson hayotidagi haqiqiy samarasini ko‘rsatadi.

Ta’limdagi raqamlar esa kelajakka berilgan javob. “Ma’rifat karvoni” doirasidagi suhbatlarda ta’lim mavzusiga alohida e’tibor qaratishimizning sababi ham shunda. Chunki ta’limga sarmoya bugunning emas, ertaning natijasidir.

Biz qanday avlodni tarbiyalayapmiz? Faqat yodlaydigan avlodnimi? Yoki fikrlaydigan, savol beradigan, izlanadigan, yaratadigan avlodnimi? Bugun ta’lim falsafasidagi asosiy o‘zgarish ham aynan shunda — yodlashdan fikrlashga o‘tishda.

Oliy ta’limda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetgani esa yana bir muhim haqiqatni ko‘rsatadi: oliy ma’lumot endi tor doiradagi imtiyoz emas, keng omma uchun erishish mumkin bo‘lgan maqsadga aylanmoqda.

Ayniqsa, talabalar orasida xotin-qizlar salmog‘i yuqoriligi biz uchun shunchaki demografik ko‘rsatkich emas. Bilimli qiz — bilimli oila. Bilimli oila — bilimli avlod. Bilimli avlod — ma’rifatli jamiyat. Shu bois, qizlarning ilm-fan, AT, muhandislik va aniq fanlarga kirib kelishi jamiyatning ertangi intellektual qiyofasiga daxldor masaladir.

O‘n million yosh esa o‘n millionta imkoniyat degani. Shu ma’noda, “Ma’rifat karvoni”da yoshlar mavzusi alohida o‘rin tutishi tabiiy. Chunki mamlakat kelajagi haqida gapirib, yoshlar haqida gapirmaslik mumkin emas.

10 million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish vazifasi belgilandi. Men bu raqamni faqat miqdor emas, 10 million imkoniyat sifatida qabul qilaman. Ularning har biri — yangi g‘oya. Har biri — yangi kasb. Har biri — yangi ixtiro. Har biri O‘zbekistonning yangi intellektual qudrati degani.

“O‘zbek tili raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozim” degan g‘oya esa bundan ham chuqurroq ma’no kasb etadi. Zero, milliy til faqat muloqot vositasi emas. U ilm yaratiladigan tilga aylansa, millatning intellektual mustaqilligi mustahkamlanadi. Shuning uchun bugun o‘zbek tilida sifatli raqamli kontent yaratish, ilmiy ma’lumotlar bazasini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarida milliy til imkoniyatlarini oshirish tilshunosninggina emas, olimning, dasturchining, muhandisning, ijodkorning ham vazifasidir.

“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining bugungi faoliyatida men uchun eng muhim jihatlardan biri olimning o‘z kabineti va auditoriyasidan chiqib, xalq bilan yuzma-yuz muloqotga kirishayotganidir. Olim faqat maqola yozadigan yoki ma’ruza qiladigan inson emas. Olim jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qilganida uning ilmi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Kuchli g‘oyani kuchli fikr egasi tushuntira oladi. Hududlarda ham targ‘ibotchilarni tanlashda aynan shu mezonga amal qildik. Chunki ma’rifatni ommalashtirish uchun, avvalo, ma’rifatli odamlar harakati kerak.

“Ma’rifat karvoni” tadbirlaridagi uch asosiy yo‘nalish tasodifiy tanlanmagan. Birinchisi — islohotlar falsafasidan iborat. Ya’ni biz nimani o‘zgartiryapmiz emas, nega o‘zgartiryapmiz degan savolni o‘rtaga qo‘yib, e’tiborni yechimga qaratdik.

Ikkinchisi — diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlar va bunyodkorlik ishlari. Bu yo‘nalish ma’rifat, bag‘rikenglik, milliy va diniy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash, yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrash kabi muhim vazifalarni qamrab oladi.

Uchinchisi — zamonaviy yoshlar, ilm-fan va innovatsiyalar. Chunki kelajak haqida gapirib, ilm-fan va yoshlarni chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Bunday uch yo‘nalishdagi ish tajribasi avvalgi “Ma’rifat karvoni” loyihalarida ham o‘zini oqlagan edi. Masalan, 2024-yilda mamlakat hududlarida o‘tkazilgan tadbirlarda shu kabi uch yo‘nalishda muloqotlar tashkil qilinib, 68 ming 870 dan ziyod ishtirokchi qamrab olingandi. Bu tajriba bugungi sharoitda haqqoniy, ishonchli va mazmunli muloqotning ahamiyati yanada ortadi.

Insonning ko‘ziga qarab gapirishning o‘rnini hech qanday ijtimoiy tarmoq bosolmaydi. Savolga yuzma-yuz javob berishning ta’siri boshqacha. Shu bois, “Ma’rifat karvoni”ning eng katta kuchini uning muloqot madaniyatida ko‘raman.

Biz odamlarga “Hamma narsa yaxshi” deb ishontirish uchun bormaymiz. Biz islohotlarning natijalarini tushuntirish, mavjud muammolar haqida ham ochiq fikrlash, savollarga javob izlash uchun boramiz. Chunki haqiqiy ishonch ko‘r-ko‘rona maqtovdan emas, ochiqlik va dalildan tug‘iladi.

* * *

Har bir raqamning ortida inson borligini unutmasligimiz kerak. Aytaylik, kambag‘allikning qisqarishi bu oddiy raqam emas, balki oilalar taqdirini anglatadi. Uy-joylar esa shunchaki kvadrat metrlarni emas, oilaning xotirjamligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday, ta’lim qamrovi — foiz emas, bolaning kelajak imkoniyati, tibbiyotdagi yutuq — yangi uskuna emas, balki inson umrining o‘lchovi va garovidir. Yoshlarga ajratilgan mablag‘ ham bir yigit yoki qizning orzusiga berilgan imkoniyatdir.

Ana shu nuqtada “inson qadri” tushunchasi o‘zining haqiqiy mazmuniga ega bo‘ladi. Eng muhimi, karvonimiz to‘xtab qolmaydi. Karvon endi joylarda davom etadi. Respublika bosqichi bu yo‘lning oxiri emas, aksincha, eng muhim bosqich endi boshlanmoqda. Viloyatlarda tayyorlangan targ‘ibotchilar tuman va shaharlarga, tashkilotlarga, mahallalarga



ma’rifiy harakat uchun muhim maktab vazifasini o‘tyapti desam, mubolag‘a qilmagan bo‘laman.

Biz vodiyda bo‘ldik. Surxondaryoda, Qashqadaryoda, Xorazmda, Qoraqalpog‘istonda, Samarqandda, Navoiyda, Buxoroda bo‘ldik. Har bir hududning o‘ziga xosligi bor. Buxoroda tarix va ma’rifat haqida gapirsangiz, odamning xotirasi boshqacha uyg‘onadi. Samarqandda ilm-fan va buyuk ajdodlar merosi haqida so‘z ochsangiz, tarix bilan bugungi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik paydo bo‘ladi. Vodiyda ta’lim, mehnat, tadbirkorlik, yoshlar masalalari jonli misollar bilan muhokama qilinadi. Qoraqalpog‘istonda taraqqiyot, inson qadri, ekologik muammolar va yangi imkoniyatlar haqidagi suhbatning o‘ziga xos ruhi bor.

Demak, bitta g‘oya turli hududlarda turlicha tilga kiradi. Targ‘ibotchining mahorati ham ana shunda — bir xil matnni hamma joyda takrorlashda emas, umummilliy g‘oyani har bir hududning hayoti bilan bog‘lay olishdadir. Biz bu narsaga alohida e’tibor qaratdik.

Ma’rifat aslida kelajakka ishonchning ham yo‘lidir. Bugun jamiyatda axborot juda ko‘p. Telefonda bir kunda o‘nlab xabar o‘qiymiz. Turli fikrlarni eshitamiz. Turli talqinlarga duch kelamiz. Shunday chiqishni boshladilar. Ular ham aholi bilan uchrashmoqda, suhbatlashmoqda, savollarga javob bermoqda. Odamlar bilan fikrlashmoqda.

Tashabbuslar muhokama qilinadi. Muhokamadan fikr tug‘iladi. Fikrdan ishonch paydo bo‘ladi. Ishonch esa harakatga aylanadi. Menimcha, ma’rifatning kuchi aynan shunda.

Biz karvon bilan faqat so‘z olib bormaymiz. Biz muloqot olib boramiz. Fikr olib boramiz. Ishonch olib boramiz. Eng muhimi, insonga uning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni va mas’uliyatini his ettirishga harakat qilamiz. Chunki yangi O‘zbekistonni aynan bilimli, faol, daxldor va ishonchli insonlar barpo etadi.

Taraqqiyot faqat baland binolardan iborat emas. U insonning bilimli, sog‘lom, erkin va munosib hayot kechirishidir. Ma’rifat esa shu haqiqatlarni anglash va anglatish yo‘lidir. Shu bois, biz yo‘ldamiz. “Ma’rifat karvoni” yo‘lda. Uning eng uzoq manzili esa viloyatlar yoki tumanlar emas. Uning eng katta manzili — inson qalbi. Chunki qalbda ishonch uyg‘onsa, fikr o‘zgaradi. Fikr o‘zgarsa, munosabat o‘zgaradi. Munosabat o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi. Jamiyat o‘zgarsa, Vatanning ertangi kuni yanada farovon bo‘ladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.